


Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

**BOSHLANG'ICH TA'LIMNING
XALQARO DASTURLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING XALQARO DASTURLARI

Oliy o'quv yurtlarining
60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan

Chirchiq – 2024 y.

UO'K 373.3;37.07

KBK 74.2

X-26

Xudayqulova F.B. /Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari/
O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ilm nurli kitob", 2024. – 180 bet.


O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fanini o'qitish uchun yordamchi manba sifatida yaratilgan. Unda "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan mavzular bo'yicha ishlanmalar berilgan. O'quv qo'llanmada Xalqaro baholash tadqiqotlari, xalqaro baholash mezonlari, PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash, kommunikativ qobiliyat, O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahliliga doir mashg'ulotlarining ishlanmalari tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

A.T.Kurbanova - O'zDSMI, Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, dotsent, p.f.f.d. (PhD).

K.R.Mamadaliyev - CHDPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

ISBN 978-9912-649-87-3



© Xudayqulova F.B., 2024

© "Ilm nurli kitob", 2024

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110500– "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari va professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanma 13 mavzudan iborat bo'lib, har bir mavzu uchun nazorat savollari keltirilgan. O'quv qo'llanmada quyidagi asosiy tushuncha va tamoyillar to'liq yoritib berilgan:

- Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi va me'yoriy asoslari.
- Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati tadqiqot metodlari.
- Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilish
- O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni
- Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish
- PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash tamoyillari
- Hozirgi jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'limning rivoji
- Ta'lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribalar. Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlari
- TIMSS Xalqaro baholash dasturining mazmun va mohiyati
- Matematik savodxonlikni TIMSS, xalqaro baholash tizimi orqali takomillashtirish ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili.

- EGMA va EGRA xalqaro baholash dasturi. O'z-o'zini boshqaradigan EGRA va EGMA ni boshlang'ich ta'limda joriy qilish
- TALIS xalqaro tadqiqotlari
- O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahlili.

Mazkur o'quv qo'llanma talaba yoshlarda yurtimiz ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etishga yordam beradi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
1-Mavzu: Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi va meyoriy asoslari	8
2-Mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati	20
3-mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilish.....	28
4-mavzu: O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni	38
5-mavzu: Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	50
6-mavzu: PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash tamoyillari	70
7-mavzu: Hozirgi jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'limning rivoji	82
8-mavzu: Ta'lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribalar. Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlari	95
9-mavzu. TIMSS Xalqaro baholash dasturining mazmun va mohiyati.	106
10-mavzu: Matematik savodxonlikni TIMSS, xalqaro baholash tizimi orqali takomillashtirish	122
11-mavzu: EGMA va EGRA xalqaro baholash dasturi. O'z-o'zini boshqaradigan EGRA va EGMA ni boshlang'ich ta'limda joriy qilish.	130
12-mavzu: TALIS xalqaro tadqiqotlari.	139
13-mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahlili.....	151
GLOSSARIY.....	167
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:	171

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish nafaqat natija bilan tavsiflanadi, balki ta'lim faoliyati – mutaxassis – oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining xossalari, shuningdek, ta'lim maqsadi, mazmuni, metodikasi, tashkil etilishi va texnologiyasiga bog'liq bo'lgan natijalarni shakllantirish omillarini tashkil etadi. Bularning barchasi o'ziga xos xususiyatlar bo'lib, ularning shakllanishiga ongli ravishda ta'sir qilish kerak, shuning uchun ularni samaradorligini oshirish, hamda ta'lim salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida xalqaro ta'lim asosida baholash mezonlariga javob bera oladigan o'quvchi yoshlarni shakllantirish, bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifasiga aylangan.

"Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan tanlov fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi - "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani dasturiga muvofiq, talabalarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, turli tadqiqotlar va g'oyalar yaratuvchichisi sifatida shakllantirish, axborot texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish, bugungi kun pedagogining asosiy dolzarb vazifasi ekanligi dastur mazmun va mohiyatida ko'rsatib berilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida, undan o'rin olgan har bir mavzu qayta ishlanib yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitildi.

"Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani oliy o'quv yurtlari talabalarini hozirgi xalqaro maktablar va dasturlar, ularning

vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tadqiqot ishlari kabilar bilan tanishtiradi.

Fanning vazifasi – boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish metodikasiga oid umumiy masalalar bilan tanishtirish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, shakl va metodlarini, o'quv mashg'ulotlarini modellashtirish va ularni integratsiya qilish texnologiyasi, uslubiy tahlil qilish malakalarini shakllantirishdan iborat.



1-Mavzu: Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi va meyoriy asoslari

Reja:

1. Xalqaro baholash dasturlarining meyoriy asoslari.
2. Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi.
3. PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS

Tayanch tushunchalar: Xalqaro dasturlar, PISA, PIRLS, TIMS, STEAM, ICILS, xorij tajribalari.

Xalqaro baholash dasturlarining meyoriy asoslari.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g'oyalarini har tomonlama qo'llab quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8- dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkaması huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

✓ ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

✓ ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

✓ ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

✓ ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

✓ umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

✓ O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

✓ xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani

ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

✓ O'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

✓ Ta'lim oluvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, pedagoglar salohiyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'lim oluvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi.

Bu o'z-o'zidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarga qiziqish jarayonlarini oshirish va pedagoglarni har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Bunday talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi barchamizga sir emas.

Umumiy o'rta ta'lim dasturlarini takomillashtirish, o'quvchilar yoshiga va o'rganishi uchun mos va xos holda yaratish ertangi ta'lim muhitini yengillashtiradi. Shuningdek o'quvchilar olgan bilimlarini xalqaro miqiyosda baholash tizimini ommalashtirish lozim hisoblanadi.

Shunday ekan aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifati oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lim sifati baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi.

Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi, yani "International Evaluation Methodology" (IEM) ta'lim tizimlarini, ma'lumotlarni, yangi o'quv dasturlarini, boshqa o'quv va o'qitishning har bir sohasini baholashda keng jihatdan qo'llash imkoniyatini takomillashtirish maqsadida yaratilgan.

- Dastlab Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim tizimini yangilanishiga olib keladi:

- O'quvchi yoshlarimizning tashabbuskor va erkin ta'limga yondashuviga asoslangan harakatlarini oshiradi:

- Tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

- Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

- Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifatida ishlab chiqish imkonini beradi.

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?

PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring

ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

IB (International Baccalaureate): IB dasturi 3- va 4-yildagi o'quvchilarning akademik va tajribaviy rivojlantirishlari, hamda 16-19 yoshdagi o'quvchilarning kundalik faoliyatlarini baholaydi.

PISA-15 yoshli ta'lim oluvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda ta'lim oluvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda qo'llangan. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Bu tadqiqotlarning natijasi dunyo bo'yicha katta qiziqish bilan kuzatib kelinadi. Shu bois yildan-yilga uning ahamiyati va qamrovi oshib boryapti. Misol uchun, 2000 yilda dastur testlarida 32 davlatdan 265000 nafar ta'lim oluvchi ishtirok etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga oshishi, ya'ni 78 davlatdan 540000 nafardan ziyod ta'lim oluvchilarning ishtiroki kutilmoqda. Har bir davlatdan ishtirok etuvchi ta'lim oluvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

TIMSS - maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf ta'lim oluvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha

berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, pedagoglar salohiyati, ta'lim oluvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistic markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

STEAM-hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda **STEAM** abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni:

S – science,

T – technology,

E – engineering,

A – art,

M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga o'quvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin, chunki maktab dasrlari orasidagi bog'liqlikni ko'rish juda murakkabdir. Aynan shunday muammolarni xal qilishda

STEAM yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

STEAM bu maktabda vamaktabdan tashqarida loyixa va o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi.

ICILS- bugungi kunda juda muhim savolga javob berish uchun ishlab chiqilgan: talabalar raqamli dunyoda o'qish, ishlash va hayotga qanchalik tayyor?

Tadqiqot talabalarning kompyuter va axborot savodxonligi (CIL)dagi xalqaro farqlarni o'lchaydi. Savodxonlikning bu turi o'quvchilarning uyda, maktabda, ish joyida va jamiyatda samarali ishtirok etishi uchun kompyuterdan foydalanish, tadqiqot qilish, yaratish va muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqot talabalarning yutuqlaridan tashqari, o'quvchilarning uy va maktab muhiti haqida ko'plab kontekstual ma'lumotlarni to'playdi.

PIRLS- (inglizcha): Progress in International Reading Literacy Study) 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi. PIRLS o'qish

ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

International Baccalaureate (IB) tizimi bir ta'lim dasturi bo'lib, u dunyodagi o'rtacha va oliy ta'lim muassasalarida qabul qilingan o'quvchilarga, 16-19 yoshlarning o'rtasida o'zlarining ta'limni oshirish uchun yuqori standartlarda va boshqaruvda qiladi. IB dasturi 1968

yilda ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi kunda dunyo bo'ylab ko'p mamlakatlar va oliy ta'lim muassasalari tomonidan qabul qilinadi.

IB dasturining asosiy bosqichi to'rtta ta'lim programmalaridan iborat:

1. **(Diploma programmasi DP) -Diplom dasturi:** 16-19 yoshlardagi o'quvchilar uchun eng keng tarqalgan IB dasturidir. Uchta asosiy fanni (tillar, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar) o'rganish va "tok" nomi berilgan ingliz tili darslarini o'tkazish bilan boshlanadi. Bu dastur o'quvchilarga mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish, kritik fikrlash va rivojlanishni ta'minlaydi.

2. **Middle Years Programmasi (MYP)-O'rta yillar dasturi:** 11-16 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur. Bu dastur o'quvchilarga o'zlarini o'rganish va rivojlanishiga muvofiq o'quv yillarining eng asosiy fanlarini o'rgatadi.

3. **Primary Years Programmasi (PYP)-Boshlang'ich sinflar dasturi:** 3-12 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur. Bu dastur o'quvchilarni shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan, ijtimoiy va madaniy qiziqishlarni oshirishga qaratilgan muloqot va o'rganishni ta'minlaydi.

4. **Career-related programmasi (CP) - Karera bilan bog'liq dastur:** 16-19 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur. Bu dastur akademik va amaliy bilim va ko'nikmalar asosida maxsus kasblarni o'rganishga muvofiq amaliyotni asoslaydi.

IB dasturi hamkorlik, o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganishga ajratiladi. Har bir programmada o'quvchilarga global

yangiliklar va amaliyotlar asosida ta'lim berish uchun murakkab o'quv va baholash tizimi mavjud.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi;

- Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori)- O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni patda uning alohida qismlarini bir -biri bilan bog'liq xolda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini izohlash uchun matnga tayana oladi.

- Yuqori daraja (550 ball)- O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

- O'rta daraja (475 ball)-O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.


- Quyi daraja (400 ball)-O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatdagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi?

O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishda qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayoning boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa

u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa davlatdagi o'qituvchilarning foydalanayotgan metodlaridan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalar o'tkazilganda o'quvchilarining so'rovnomasi orqali , ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oilada ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, maktabdagi o'quv faniga bo'lgan munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilarning so'rovnomalari o'qituvchilar to'g'risida ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalar so'rovnomalarida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilishdan avvalgi ko'nikma va malakalar, otaonalarining maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi. Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasi haqida fikr bildiring.
2. PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlari ta'limni qanday sohasini baholaydi?
3. ICILS xalqaro tadqiqot maqsadi vazifalari nimalardan iborat?
4. Milliy markazning ta'lim tizimidagi vazifasi nima?



2-Mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati

Reja:

1. "Xalqaro ta'lim" nima?
2. Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'limning ahamiyati.
3. Boshlang'ich ta'limda xalqaro maktablar

Tayanch tushunchalar: Xalqaro dasturlar, xalqaro maktab, madaniyatlararo, innovatsiyalar, globallashuv.

Xalqaro ta'lim" nima?

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktab ta'lim tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik reytingiga kiritish, ayniqsa, o'quv yurtlariga qabul qilishda ob'ektiv va adolatli tizimni o'rnatish, nufuzli chet el universitetlari filiallarini ochish kabi ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. "Xalqaro ta'lim" aslida nimani anglatishi haqidagi munozaralar davom etmoqda, bu keng qamrovli ta'limning

yangi strategik yo'nalishi hisoblanib, u istiqbollarni kengaytiradi, turli aloqalarni o'rnatadi va chegaralar bo'ylab innovatsiyalar va g'oyalarni rag'batlantiradi.

Xalqaro maktablar an'anaviy ravishda xalqaro biznesda, xorijiy elchixonalarda va hokazolarda ishlaydigan xalqaro ko'chma chet ellik oilalarga xizmat ko'rsatadi.

Hozirda ta'lim darajasini o'rganayotganlar uchun xalqaro ta'lim tushunchasini ikki tomonlama tushunadilar. O'qish davomida siz avtomatik ravishda chinakam va dinamik xalqaro hamjamiyatning bir qismiga aylanasiz, u erda siz turli xil madaniyatlar, e'tiqodlar, tillar va istiqbollarga bebaho kirish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

O'qish va karerangizdan tashqari, siz o'qiyotgan akademik muhitni ham ko'rib chiqishni xohlaysiz - madaniyat va til bir vaqtlar to'siq bo'lgan talabalar o'rtasida xilma-xillik va inklyuzivlikni rag'batlantirishlarni ko'radilar.

Xalqaro ta'lim butun dunyo bo'ylab yetakchi o'zgarishlarning katalizatoridir.

Xalqaro ta'lim olami - bu shaxslarning yuksalish qozonidir va global nuqtai nazarga ega bo'lgan o'rganish talabalarning turli madaniyatlar, etnik guruhlar, dinlar va tillar bilan tanishishini ta'minlaydi, bu jarayonda jamiyatni boyitadi va har bir kishi uchun akademik tajribani kengaytiradi.

Shuningdek, u, albatta, ko'p madaniyatli ta'lim muhitini o'rnatadi, bu esa talabalarning madaniy xabardorligini oshiradi. Ta'lim global rivojlanishning birinchi pog'onasida turadi va globallashuv oilalarning

ishlash va o'qish imkoniyatlari uchun chet elga ko'chib o'tishlarini har qachongidan ham osonlashtirgani sababli, xalqaro ta'lim olish jozibadorligini o'rganish lozim.

2019-yil yanvar oyida ISCR esearch dunyo bo'ylab 10 282 ta xalqaro maktab, 5,36 million talaba va 503 000 nafar xodim mavjudligini ma'lum qildi, xalqaro ta'limga bo'lgan talab ortib borishi bilan bu raqamlar ko'payadi. Mintaqadagi ingliz tilini o'rgatadigan xalqaro maktablarning jadal o'sishi, xususan Gonkong, uzoq vaqtdan beri sharq va g'arb, shimol va g'arb o'rtasidagi chorrahada joylashgan gullab-yashnayotgan xalqaro shahar sifatida e'tirof etilganligi sababli Osiyo xalqaro ta'lim sohasida yuksalayotgan yulduzdir.

"G'arb uslubidagi" ta'limga bo'lgan talab Xalqaro bakalavr va Kembrij baholash tizimining o'sib borayotgan nufuzi Osiyo va boshqa mamlakatlardagi ta'lim tizimiga ham ta'sir qila boshladi.

Xalqaro ta'limning maqsadi -o'zini va boshqa madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishni targ'ib qilish, global muammoli sohalar haqidagi bilimlarni targ'ib qilish, gumanistik ta'limning afzalliklarini tan olish va inson holati to'g'risida tushuncha almashish orqali inson holatini yaxshilash uchun kerakli xilma-xillikni ta'minlashlaydi. Ushbu maqsadlarga Parallel ravishda xalqaro ta'lim ikkinchi Jahon urushidan keyin milliy va irqiy xurofotlarni o'zgartirib, yaxshiroq dunyo fuqarolarining rivojlanishiga, urush sabablarini ochib berishga va dunyo tinchligini ta'minlashga umid qilgan edi. Shu tarzda, shaxslar global va xalqaro muammolarni hal qilishda (ya'ni, yaxshiroq dunyoni

yaratish uchun) xalqaro tushunish, bag'rikenglik, hurmat va hamkorlik kabi qadriyatlarga ega bo'lishadi.

Xo'sh xalqaro ta'lim tizimi mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida qanday ahamiyatga ega? Rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston respublikasi ta'lim jarayonlarini takomillashtirishi va yangi ta'lim dasturlarini milliy ruhga moslagan holda yaratishini ta'minlashi lozim.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'limning ahamiyati.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati bir necha muhim sabablar bilan bog'liq. Ba'zilar quyidagilardir:

1. **Madaniyatlararo bilim:** Xalqaro ta'lim dasturlari o'quvchilarga global jamiyatning mustaqil ahamiyatini o'rgatishga yordam beradi. Bu, turli millatlar va madaniyatlar orasidagi tushunchalarni o'rganish orqali xorij urf-odatlarini tushunish va hurmat qilish imkoniyatini yaratadi.

2. **Tarixiy bilimlar:** Xalqaro ta'lim dasturlari dunyo tarixi, geografiyasi, siyosati, iqtisodiyati, madaniyati, va boshqa sohalaridagi tushunchalarni o'rgatishga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga dunyo bo'ylab muhim tadbirlar, insoniy rivojlanish jarayoni, va dunyodagi insonlar bilan o'zaro munosabatlarning tushunchalarini oshiradi.

3. **Til o'rganish:** Xalqaro ta'lim dasturlari qo'shni mamlakatlar va turli etnik guruhlar orasidagi kommunikatsiyani oshirishga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga turli tillarda etkazib berilgan darslarni o'rganish, boshqa tillarda gaplashishni o'rganish va dunyo bo'ylab tarjimachilik qilish imkoniyatlarini yaratadi.

4. **Global ta'lim standartlari:** Xalqaro ta'lim dasturlari dunyoda barcha o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ko'mak berish uchun belgilangan global ta'lim standartlarini qamrab oladi. Bu standartlar o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

5. **Innovatsiyalar va ko'nikmalar almashuvi:** Xalqaro ta'lim dasturlari yangi innovatsiyalar va ko'nikmalar almashuvi uchun jamiyatning sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu, yangi texnologiyalar va texnologiya bilan o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarga modern texnologiyalarni (turli sohalarni o'z ichiga oladi) foydalanish va ularni dasturda integratsiya qilish imkoniyatini beradi.

6. **Qo'shni dasturlar va o'quv tajribasi:** Xalqaro ta'lim dasturlari o'quvchilarga chet eldagi ta'lim institutlarida va o'quv markazlarida o'rganish uchun qo'shni dasturlar va o'quv tajribasini taqdim etadi. Bu, o'quvchilarga global jamiyatga kirishga tayyorgarlik olishda va yuqori malakali mutaxassislar bo'lishda yordam beradi.

O'qituvchilar uchun bu nimani anglatadi?

Hozirgi kunda mamlakatimizda Xalqaro ta'limga bo'lgan talabni qo'llab-quvvatlagan holda, xalqaro dasturlar asosida ishlash uchun zarur tayyorgarlikka, madaniyatlararo ko'nikmalarga va global dunyoqarashga ega bo'lgan intiluvchan ***o'qituvchilarga*** talab ortib bormoqda. Bunday ta'lim juda muhim va universitetlar bunga javoban yangi daraja dasturlarini yaratmoqda. Yurtimiz oliy ta'lim dargohlarda xalqaro baholash dasturlari fanining kiritilishi ham bejizga emas.

Dastur talabalarni xalqaro miqyosda o'qitishga ishonchi bo'lgan o'qituvchilarni rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi ta'lim jarayoni globallashtirish natijasida yuksalishi lozim.

Globallashtirish shuni anglatadiki, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqlik keskinlashdi va milliy davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida bir xillikdan uzoqlashdi. Maktablarni jamiyatda turli sohalarida kutgan natijalarni qondira oladigan shaxslarni tarbiyalasda yangi tizimni ochib beradi.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro maktablar

Boshlang'ich ta'lim –bu kelajak bunyodkorlari hisoblanadi. Kelajak avlodni jahon ta'lim tizimiga asoslangan holda ta'lim-tarbiya berish hozirgi kun pedagogining oldidagi vazifasidir. Ayniqsa kelajak pedagogi xalqaro ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan va til bilish malakasiga ega bo'lgan, yosh avlodni yangi axborotlar bilan to'yintira oladigan, yangi tizimlarga moslashtira olish ko'nikmasini egallashi lozim sanaladi.

Boshlang'ich xalqaro ta'lim bolani maktabda ham, undan tashqarida ham tadqiqotchi sifatida rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Boshlang'ich xalqaro ta'lim talabalar, o'qituvchilar va butun maktab jamoalari uchun o'zgaruvchan tajribani taklif qiladi va qiziqarli, dolzarb, qiyin va muhim ta'limni taqdim etish orqali ajoyib natijalarni beradi.

Boshlang'ich xalqaro ta'lim o'quvchilari o'z ta'limlariga qanday egalik qilishni biladilar, tushunishni chuqurlashtirish va o'zlarining ishonchlari va o'ziga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun

o'qituvchilar bilan hamkorlik qiladilar. Integratsiyalashgan davomiy baholashda faol ishtirok etish orqali ular konstruktiv fikr-mulohazalar asosida harakat qila oladigan samarali, o'zini o'zi boshqaradigan o'quvchilarga aylanadi.

Boshlang'ich xalqaro ta'lim o'quv rejasi talabalar o'z ta'lim agentlari va o'quv jarayonidagi hamkorlar ekanligidan boshlanadi. U kuchli ta'lim hamjamiyatini yaratish uchun odamlar va ularning munosabatlariga ustuvor ahamiyat beradi.

Boshlang'ich xalqaro ta'lim talabalari o'z tashabbuslarini o'z ta'limlari uchun mas'uliyat va egalik qilish uchun ishlatadilar. PYP (**Primary Years Programmasy**: 3-12 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur) talabalari so'rov orqali o'rganish va o'z ta'limlari haqida fikr yuritish orqali o'z hayotlarida, jamiyatlarida va undan tashqarida o'zgarishlar qilish uchun bilimlarini, kontseptual tushunchalari, ko'nikmalari va atributlarini (umumiy xususiyat) rivojlantiradilar.

Global ahamiyatga ega bo'lgan oltita transdisipliner mavzuni boshqargan holda, talabalar o'zlarining kontseptual tushunchalarini rivojlantirish, o'z bilim va ko'nikmalarini fan sohalari orasida va undan tashqarida mustahkamlash orqali o'z bilimlarini kengaytiradilar.

Xalqaro dasturlar o'quvchilarni ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, jahon axborot kommunikatsiya sohasini o'zlashtirishi, xalqaro baholash dasturlariga tayyor bo'lishini ta'minlaydi.

Farzandlarni tushunishni kuchaytiruvchi, turli madaniyatlar va nuqtai nazarlarni qadrlashni rag'batlantiradigan va dunyodagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlovchi ko'p madaniyatli ta'lim muhitiga

ochib berish orqali farzandlar hayotini boyitish uchun oilalar tobora ko'proq xalqaro ta'limni qamrab olishlari zarur.

Har bir o'quvchi uchun akademik sayohatni shakllantirish, ularni to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qo'llab-quvvatlash lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro ta'lim dasturlari nima?
2. Xalqaro ta'lim dasturlarining asosiy maqsadi nima?
3. Xalqaro ta'lim dasturlari qanday mavzularni o'z ichiga oladi?
4. Xalqaro ta'lim dasturlari qanday metodlarni qo'llaydi?
5. Qanday ta'lim muassasalarida xalqaro dasturlarni amalga oshirish mumkin?



3-mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilish.

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilishning maqsadi
2. STESTING.UZ electron platformasining yaratilishi
3. Boshlang'ich ta'limda tabiiy va aniq fanlarni baholash TIMS dasturi haqida.

Tayanch tushunchalar: Xalqaro baholash dasturi, STESTING.UZ platformasi, PISA tadqiqoti, TALIS tadqiqoti.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilishning maqsadi

Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Dunyoda yuzdan ortiq davlat o'z mamlakatida joriy etilgan ta'lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O'zbekiston

birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

PISA tadqiqotlari dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida standartlashtirilgan testlar orqali o'tkaziladi. Ta'lim rivojlangan mamlakatlarda 14 yoshli bolalarning bilim darajasini bir xil mezonda o'lchash imkonini beradi. PISA tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechog'lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko'rsatadi. Avvalo bu ishtirok nima uchun muhim?

PISA tadqiqotlarida shunday savollar qoyiladi, bu qaysidir bir faktga asoslangan emas. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan va unda kimyo, fizika, biologiya fanlari ham o'rin olgan. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov.

Hozirgi kunda Milliy markaz tomonida milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi doirasida bolalarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko'nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Shu orqali xalqaro baholash dasturlarida natijaga erishish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning bir nechta maqsadlari mavjud?:

1. **O'quvchilarning o'zlarini baholash:** Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning o'zlarini baholashiga imkon beradi. Bu, ularning o'zining ilmiy va amaliy bilimlarini, tushunchalarini yetarli ekanini aniqlashga yordam beradi.

2. Ta'lim samaradorligini o'rganish: Baholash dasturlari, ta'lim usullarini, darsliklarni va o'quv materiallarini boshqarishning qanday usullarining samaradorli ekanligini aniqlashga yordam beradi.

3. O'quv jarayonini nazorat qilish: Xalqaro baholash dasturlari, o'quv jarayonini nazorat qilishda juda foydali bo'ladi. Bu, o'qituvchilar va muassasalar uchun o'quvchilarning o'rganish darajasini, muvaffaqiyat darajasini va o'zlashtirishlari kerak bo'lgan nuqtalarini aniqlashda yordam beradi.

4. Ta'lim sifatini oshirish: Baholash dasturlari o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ular, qaysi ta'lim usullarining va materiallarining eng samarali va qiziqarli bo'lishini aniqlash uchun foydalaniladi.

5. Xalqaro ta'limni metodik ta'minlash: Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilar va o'qituvchilar uchun xalqaro standartlarga mos ravishda o'quv materiallari va darsliklarni tanlashda yordam beradi. Bu, ta'limning xalqaro darajada integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi.

6. O'qitish va o'rganishning yangi usullarini o'rganish: Baholash dasturlari, o'qitish va o'rganishning yangi va innovatsion usullarini o'rganish va darslarni eng samarali tarzda tashkil etishda yordam beradi. Bu, o'qituvchilar uchun yangi texnologiyalar va interaktiv darsliklar bilan tanishishga yordam beradi.

Bu maqsadlar boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning muhimligini ko'rsatadi va o'qitishning va o'rganishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

STESTING.UZ electron platformasining yaratilishi.

2019 yil 29-martda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarorida, PISA xalqaro baholash dasturi tadqiqotlari ishtirokchi davlatlar reytingida kuchli 30 talik mamlakatlar qatoridan joy olish, shuningdek, tadqiqot natijalaridan foydalangan holda umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash milliy tizimini takomillashtirish bo'yicha ulkan vazifalar belgilangan. Xalq ta'limi vazirligi boshchiligida mazkur xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "STESTING.UZ" loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor videolar yaratildi va « STESTING.UZ » platformasi ishga tushirildi.

"STESTING.UZ" elektron platformasi – xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan platformadir. Platformaga 1500 tadan ortiq testlar joylashtirilgan.

Elektron platformani sinovdan o'tkazish yutuqlaridan boxabar va inson salomatligi bilan bogliq hal etuvchi qarorlarni mustaqil qabul qilish, egallagan bilimlarini real hayotda qo'llay olish, tabiat va jamiyat hodisalariga nisbatan munosabat bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni hayotga tayyorlash, zamonaviy kasblarga bo'lgan

qiziqishlarini oshirishda muhim ko'makchi vazifasini o'taydi. Ushbu platformada 1449 ta test-topshiriqlari, 103 ta mediakurslar, 40 ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o'rin olgan. Shulardan, PISA xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blok va 489 ta savollar bo'lsa, TIMSS xalqaro tadqiqotiga oid esa 8 ta fanga tegisli 583 ta nazorat savollar zjoyolgan. PIRLS xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blokdan iborat 377 ta savollar platformaga joylashtirilgan.

“STESTING.UZ” elektron platformasi statistikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022 yilning fevral-iyul oylalari davomida yurtimizdagi 7750 dan ortiq maktablar ushbu elektron platformadan ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularda 2500000 dan ortiq maktab o'quvchilarimiz test-topshiriqlarni bajarib kelmoqdalar. Ushbu bajarilgan test-topshiriqlar 12 nafar malakali o'qituvchi-mutaxassislar tomonida o'zbek va rus tillarida tekshirilib baholanmoqda. Hozirda 2000000 dan ortiq test topshiriqlar tekshirilib baholandi.

O'zbekistonning milliy ta'limiga tegishli rivojlantirish, jozibadorligini tuzatish, o'qish matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy baholash tizimini yaratish maqsadlari ilgari surilgan.

Zamonaviy maktablar o'quvchilarga doim rivojlanish va o'sishga, o'zgarib turadigan olamda o'z ornini topish va rivojlantirishga yordam berish kerak.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, testlarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mazkur elektron platforma 2022- yil sentabr-oktabr oylarida belgilangan maktablarda tajriba

sinovidan o'tkazildi. Eng muhim jihatlaridan biri ushbu test trenajyor platformadan foydalanish mutlaqo bepul. Bugungi kunga qadar ushbu platformada 2,6 milliondan ortiq o'quvchi ro'yxatdan o'tgan va ularning diagnostik baholash natijalari tahlil qilingan.

STESTING.UZ elektron platformasida hududlar bo'yicha matematika yo'nalishi natijalar dinamikasi bilan tanishib chiqing! 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika fanida umumiy o'rtacha baholash ko'rsatkichi quyidagicha : O'rtacha baholash ko'rsatkichi 203,7 ballni tashkil etadi. Natijalar xalqaro 1000 balli shkala bo'yicha solishtiriladi. Toshkent viloyati - 300,7 ball

Navoiy - 291 ball

Qashqadaryo - 286 ball

Jizzax - 248 ball

Xorazm - 221 ball

Farg'ona - 204 ball

Surxondaryo - 184 ball

Sirdaryo - 181 ball

Toshkent shahar - 180 ball

Qoraqolpog'iston Res - 180 ball

Namangan - 157 ball

Samarqand - 155 ball

Andijon - 152 ball

Buxoro - 134 ball

Toshkent viloyati eng yuqori ko'rsatkichga – 300,7 ball erishgan bo'lsa, eng pastku bahoni – 134 ball bilan Buxoro viloyati kursatib

turibdi. Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Xorazm va Namangan viloyatlari o'rtacha ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Boshlang'ich ta'limda tabiiy va aniq fanlarni baholash TIMSS dasturi haqida.

1961-yilda ish ishlab chiqarish Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti - OECD) o'tgan davr dunyoda turli muammolarning yechimini topish uchun izlanishlar olib bordi. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo taliming asosli bug'ini bo'lgan umumiy o'rta talimni rivojlantirish maqsadida PISA (The Program for International Student Assessment) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi shundaki, har qanday soha uchun qadrlar maktablarda, oddiy sinflarda ulg'ayishidir. Shu manoda OECD dek ulkan tuzilma ham davlatlarning talim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'lik samarali reytingini aniqlashga majbur bo'ldi. Keyin bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnashish boshlandi.

Tahliliy ma'lumotlarni o'rganishimizda, 2018-yilda otkazilgan PISA tadqiqotida dunyoning rivojlangan va o'rta daromadli 79 davlatidan ziyoda 10 milliondan ortiq bola ishtirok etganini, bugungi kunda esa PISA dasturi ishtirokchi davlatlar sonining 88 ga yetishganini aniqladik. PISA bir tepalik standart va talablarga muvofiq butun dunyodagi o'quvchilar bilimni baholaydi.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, bu tadqiqot to'rt yilda bir marta o'tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. PISA 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik

darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSSni bir-birini to'ldiruvchi dasturlar deb e'tirof etish mumkin. PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo'ladi deb aytish mumkin.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joiz, o'quvchilar bilim doirasi, dunyoqarashini kengaytirishda bu kabi ilg'or zamonaviy ta'lim usullari yaxshi samara beradi. Shu boisdan, mamlakatimizda bunga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu kabi ishlar kelgusida ham davom ettiriladi. Ta'lim tizimidagi bunday yangiliklar ta'lim sifatini oshirish, baholashda xolislik va adolatni ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Nazorat uchun savollar.

1. O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilishdan maqsad nima?

2. O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlari asosida yaratilgan elektron platforma va uning afzalliklari nimada?

3. TIMSS xalqaro baholash dasturi qanday fanlar doirasida o'quvchining salohiyatini aniqlaydi?

4. Qanday resurslar ta'limda xalqaro dasturlarni tadbiq qilishda ahamiyatli?

5. Xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilishda foydalanadigan ilmiy adabiyotlar haqida fikr bildiring!



4-mavzu: O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni

Raja:

1. Kreativ fikrlashning bola faoliyatiga ta'siri
2. Xalqaro tadqiqotlarning bolalar ijodiy tafakkuridagi o'rni
3. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rag'batlantirish

Tayanch tushunchalar: Kreativ fikrlash, xalqaro dasturlar, ta'lim jarayoni, erkin fikr, rag'batlantirish.

Kreativ fikrlashning bola faoliyatiga ta'siri

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimiga e'tibor berilib, o'quvchi yoshlarimizning jahon andozalariga mos, zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo'lishi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbiga fidoiyluk tuyg'ularini rivojlantirish kabi ulkan ishlar rejalashtirilib, ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi.

Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Shu sababli ular globallashtirish jarayonida tez o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi.

Maktablarda o'quvchilarni kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir.

Kreativ fikrlash haqida tarixga nazar tashlanganda, bunyodkorlik g'oyalari, innovatsiyalar insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. G'ildirakning ixtiro qilinishidan tortib, Internetning yaratilishigacha ijodiy fikrlar va innovatsion yondashuvlar ko'pgina to'siqlarni yengib o'tishga va hayotni yaxshilashga yordam bergan.

15-asrda nemis ixtirochi Iogannes Gutenberg bosmaxonani yaratdi, bu o'z davri uchun inqilobiy ixtiro edi. Bu kitoblarni ommaviy ishlab chiqarish va bilimlarni kengroq ommaga tarqatish imkonini berdi. Matbaa ixtiroosi ta'lim, fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi,

shuningdek, Uygʻonish va Reformatsiya gʻoyalarning tarqalishiga yordam berdi.

Amabile nazariyasi har qanday shaxsning ijodiy faolligi uchun toʻrt zaruriy qismni zarur ekanligini sanaydi:

- sohaga bogʻliq qobiliyatlar:
- kreativlikka bogʻliq jarayonlar:
- ishtiyoq (motivatsiya)
- mos, qulay sharoit.

19-asr oxirida Karl Benz va Gottlib Daymler transportni inqilob qilib, avtomobilni ixtiro qildilar. Avtomobil odamlar va tovarlarning harakatlanish usulini oʻzgartirdi, sayohat vaqtini qisqartirdi va imkoniyatlar chegaralarini kengaytirdi. Bu ham avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishiga, yangi ish oʻrinlari yaratilishiga olib keldi. Faktlardan koʻrinib turibdiki, har qanday kreativ fikrlar va gʻoyalar ragʻbatlantirilishi natijasida namoyon boʻladi.

Kreativ fikrlash — bu qimmatli va asl gʻoyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yoʻnalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda «kundalik» ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shugʻullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki sanʼat bilan bogʻliq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funktsional boʻlgan vazifalarda ham qoʻllanilishi mumkin. Yaʼni:

1. **Koproq oʻylash: Kreativ fikrlash**, bolani dunyoni oʻrganish, munosabatlarda qatnashish va eng muhim narsalarni tahlil qilishga

ilhom beradi. Bu, ularning eng oddiy haqiqatlar bilan taʼriflash va ularga oid qiziqarli savollar berishga oʻrgatishga yordam beradi.

2. **Reallikka asoslanish**: Bolalar uchun kreativ fikrlashning bir qismi, dunyo bilan bogʻliqlikni tushunish va oʻzlarining oʻzgartirilishi mumkin boʻlgan bir qancha variantlarni koʻrishdir. Bu, ularning muhitlaridan tajribalar olish va ularga qiziqishni oʻrgatishga yordam beradi.

3. **Yaratuvchilikni kuchaytirish**: Kreativ fikrlash, bolalar uchun muammolarga yechim topish, oʻz fikrlarini ifodalash va yangi yechimlarni topishga oʻrgatadi. Bu, ularning mustaqil fikrlash va yaratuvchilik bilan taʼminlanishiga yordam beradi.

4. **Oʻz fikrlarini bildirish**: Kreativ fikrlash, bolalarga oʻz fikrlarida mustahkam turish va ularni ifodalashni oʻrganishni oʻrgatadi. Bu, ularning oʻzining gʻoyalarni qanday ifodalashini oʻrgatadi.

5. **Jiddiylik va intellektual boyitish**: Kreativ fikrlash, jiddiylik va intellektual boyitishni taʼminlaydi. Ular yangi yechimlarni topish, muammolarni hal qilish va dunyo bilan bogʻliqlikni oʻrganish orqali ularning mantiqiy va intellektual rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

6. **Muammolarni hal qilishni ragʻbatlantirish**: Kreativ fikrlash, bolalarning muammolarga yechim topish koʻnikmalarini ragʻbatlantiradi va ularning oʻzlarini oʻzgaruvchan fikrlarini boshqalarga yetkazishga ilhom beradi. Bu, ularning oʻzlarini erkin his qilish va oʻzgaruvchanliklarini qadrlashga yordam beradi.

Kreativ fikrlash, boshlangʻich taʼlimda bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini oʻrganish, ularning oʻz fikrlarini oʻrgatish va

ifodalash, yangi yechimlarni topish va muammolarni hal qilishga ko'maklashishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, bolalarning mustaqil, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni hayotda muvaffaqiyatga erishadi.

Xalqaro tadqiqotlarning bolalar ijodiy tafakkuridagi o'rni.

Xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy bo'lishi mumkin. Bazi o'qituvchilar nazarida o'quvchini kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa, o'quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi.

Xalqaro tadqiqotlar, bolalar ijodiy tafakkurida quyidagi o'rnlar bilan ajralib turadi:

1. ***Ilmiy bilimlarni o'rgatish:*** Xalqaro tadqiqotlar, bolalarga ilmiy bilimlarni o'rgatishda muhim o'rin egallaydi. Bu, ularning ilmiy bilimlarni oshirish, tajriba olish va o'zlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Jumladan, xalqaro tadqiqotlar orqali bolalar, fizika, kimyo,

biologiya va boshqa ilmiy sohalarda o'zlarini rivojlantirishlari mumkin.

2. ***Ijtimoiy muammolarni yechish:*** Xalqaro tadqiqotlar, bolalarga ijtimoiy muammolarni yechishda ham muhim o'rin egallaydi. Bu, ularning dunyoqarashni tushunish, ijtimoiy muammolarni analiz qilish va ularni yechishga qaratilgan yollar haqida o'rganishga imkoniyat yaratadi.

3. ***Dunyoqarashni shakllantirish:*** Xalqaro tadqiqotlar, bolalarga dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim o'rin egallaydi. Bu, ularning turli mamlakatlarning tarixi, madaniyati va tabiiy resurslari haqida o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi.

Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rag'batlantirish

PISA 2022 tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o'quvchilarning kreativ fikrlash jarayoniga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o'quvchilarni ajratmasdan, balki o'quvchilarning fikrlashini orttirish, hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o'qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta'limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviylikini baholaydi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ta'lim maqsadi, sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma'lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash joizki, kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish

jarayonida shakllanishi, uning o'рта ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashning imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o'qitiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo'lishi kerak.

Nima uchun o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim hisoblanadi?

Kreativ fikrlash o'quvchilarning tajribalarini, harakatlarini, voqealarni yangi va shaxsan mazmunli talqin qilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning ilmiy qiziqishi va yutuqlariga, o'z-o'zini anglashi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfdan tashqari, ijodiy fikrlash o'quvchilarga doimiy va tez o'zgaruvchan dunyoga moslashishga yordam beradi. Shuni takidlash joizki, kreativ fikrlashni baholash tizimida sohalar qancha ko'p kiritilsa, qamrab olinayotgan tushincha ham yetarlicha bo'ladi. Mana shunday holatda ham, PISA tadqiqotlariga qo'yiladigan amaliy va mantiqiy cheklovlar PISA 2022 o'quvchilarning fikrlashini baholashda asosiy rol o'ynaydi.

Birinchi cheklov tadqiqotda nazarda tutilgan 15 yoshli o'quvchilar cheklangan darajadagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lsada, baholash uchun tanlangan mashg'ulotlar dunyoning ko'p sonli o'quvchilari egallashi mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalarga tayangan bo'lishi shart.

Ikkinchi cheklov test ishlash vaqti meyorlangan. O'quvchilar PISA baholash talabidan kelib chiqqan holda bir soatga mo'ljallangan kreativ testlarni ishlashi kerak.

Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rag'batlantirish uchun quyidagi usullar yordam berishi mumkin:

1. O'quvchilarga ishonch va erkinlik berish: O'qituvchi o'quvchilarga ishonch, erkinlik va jiddiylik berish orqali ularni yangi yechimlarga, fikrlashga va ijodiy faoliyatga qo'llab-quvvatlashi kerak.

2. O'quvchilarga ko'nikmalar berish: O'qituvchi o'quvchilarga o'zgaruvchan fikrlash va ijodiy yondashuvlarni qanday amalga oshirishlarini o'rgatish orqali ularni rag'batlantirishi mumkin. Bu, masalan, turli ta'lim metodlari, darsliklar, kreativ mashg'ulotlar va ijodiy vazifalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. Mashg'ulotlar va tajribalar: Kreativ mashg'ulotlar va tajribalar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga va yechim topishga yo'l qo'ymoqda. Masalan, fikrlashni kuchaytiruvchi o'yinlar, fikr variantlarini aniqlash uchun qiziqarli masalalar va ijodiy vazifalar kreativ fikrlashni rag'batlantirishda yordam berishi mumkin.

4. O'quvchilarni muntazam suhbatga chaqirish: O'qituvchi o'quvchilarni muntazam suhbatlar, to'g'ri va qo'llanishli savollar orqali kreativ fikrlash va ijodiy yechimlarni qo'llab-quvvatlash uchun chaqirishga intiladi. Bu, ularning o'zlarini ifodalash, fikrlash va boshqa o'quvchilar bilan munosabatlarni o'rgatishga yordam beradi.

5. Yangilik va qiziqarli ma'lumotlar: O'qituvchi yangilik va qiziqarli ma'lumotlar orqali o'quvchilarning fikrlash va ijodiy


faoliyatlarini rag'batlantirishi mumkin. Bu, masalan, global muammolar, innovatsion loyihalar, ijtimoiy muloqotlar va boshqa turli yangiliklar orqali o'quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va yechim topishga yo'l qo'yiladi.

6. O'quvchilarning o'zi faol qatnashishini ta'minlash: O'qituvchi o'quvchilarni darsda va o'quvchilarning hayotida ijodiy va fikriy faoliyatga o'zi xohish bilan qatnashishini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish kerak. Bu, masalan, maktab jurnali, ijodiy proyektlar, tanlovlar, forumlar va boshqa faolliklarga qatnashishni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kreativ fikrlashni rag'batlantirish, o'quvchilarning ijodiy va analitik qobiliyatlari, fikr qonuniyatlari va o'zlarini o'zgaruvchan fikrlashda rivojlanishiga yordam beradi. Bu, ularning dunyo bilan bog'liqlikni o'rganish, muammolarga yechim topish va o'zgaruvchanliklarini qadrlashlariga imkoniyat yaratadi.

Ilm-fan sohasida kreativ fikrlash ilmiy izlanish ko'nikmalariga uzviy bog'langan. Ilmiy muammolarni yechimini topishga doir berilgan mashg'ulotlar har xil ilmiy kontekstlarda kreativ fikrlashning xilma-xil jihatlarini o'z ichiga oladi.

Kreativ fikrlash biror maqsadni oldiga qo'yadi va kerakli natija berish bilan yakun topadi. Kutilgan tarzdgai kreativ fikrlash ko'nikmasi noodatiy bo'lmagan yangilik yaratish bilan emas, kerakli natijani beradigan ijodiy faoliyat ekanligi bilan xarakterlanadi. Kreativ fikrlashni shaxsiy va ijtimoiy omillari haqida quyidagi shakl asosida ko'rish mumkin:



1-shakl. O'quv jarayonida kreativ fikrlashning yordamchi omillari.

Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanadi. Maqsadga yo'nalganlik va kreativlik borasida o'z-o'ziga ishonch bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ayrim tadqiqotchilar insondagi ichki ijodiy samaradorligining qiyinchilikka qaramasdan harakat qilishi va nihoyat oldiga qo'ygan vazifani to'liq bajarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Insondagi bunday qat'iy ishonch, o'z navbatida, insonda mavjud bo'lgan tirishqoqlik, kayfiyat va bajarilishi kerak bo'lgan vazifaning ijtimoiy holatiga bog'liq bo'ladi. Bunday qat'iyatlilikka undovchi motivatsiya bu - "Topshiriq motivatsiyasi".

Kreativ yondashuvga asosiy turtki bo'ladigan "Topshiriq motivatsiyasi" **Amabail** tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, insonlar yuqori darajadagi konikmalarga ega bo'lishlari uchun yuqori darajadagi kreativ salohiyatga ega bo'lishlari kerak, ammo ularga yetarli darajada motivatsiya berilmasa, kreativ yondashuvni amalga oshira olmaydilar.

Bilim - "dunyoga savol to'la hayrat ko'zi bilan qarash" orqali ham hosil qilinishi mumkin. Dunyoga savol to'la hayrat ko'zi bilan qarash deganda o'quvchining dunyoni anglashga urinish jarayoni tushuniladi va bu o'quvchilarni turli hodisalar borasida o'zlarining fikr-mulohazalarini ilgari surishlariga turtki bo'ladi.

Yillar mobaynida insonning bir necha sohalardagi ijodiy barkamolligining ahamiyati va uning tahlili borasida ko'plab adabiyotlar vujudga kelgan. Ushbu yozilgan adabiyotlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, kreativ barkamollik ma'lum ijtimoiy sohaga nisbatan yangi va foydali, deb qaralgan. Ta'lim jaryonida esa kreativ yondashuv o'zining "kundalik" shakliga egadir. Masalan, u yozish, chizish, musiqa yoki "san'at"ning boshqa sohalarning ifodaviy faoliyati, yangi bilim va tushunchalar hosil qilish, yoki turli ochiq turdagi savollarga kreativ yechimlar topish orqali namoyon bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kreativ fikrlash nima? Ta'rif bering va kreativ fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari nima? Kreativ fikrlashga ta'sir etuvchi omillar nimalar?


2. Kreativ fikrlash va xalqaro tadqiqotlar o'rtasidagi bog'lanishlar nima? Kreativ fikrlashning xalqaro tadqiqotlarga o'z ta'siri qanday bo'ladi? Kreativ fikrlashning Xalqaro tadqiqotlar asosida o'quvchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi ijobiy natijalar?

3. Kreativ fikrlash va xalqaro tadqiqotlar qanday muammolarni yechishda yordam beradi? Ular qanday yondashuvlarni taklif qiladi?

4. Kreativ fikrlash va xalqaro tadqiqotlar qanday ijtimoiy muammolarni yechishda yordam beradi? Ularning ijtimoiy rivojlanishga o'z ta'siri qanday?

5. Kreativ fikrlash va xalqaro tadqiqotlar qanday shaxsiy rivojlanishga yordam beradi? Ularning shaxsiy rivojlanishga o'z ta'siri qanday?

6. Kreativ fikrlash va xalqaro tadqiqotlar qanday innovatsiyalarni o'rnatishda o'z ta'sirini ko'rsatadi? Innovatsiyalar qanday sharoitlarda rivojlanadi?



5-mavzu: Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish

Reja:

1. Xalqaro dasturlar asosida pedagogni kasbiy –metodik tayyorgarligini oshirish.
2. Xalqaro dasturlar va tadqiqotlarning kelajak o'quvchisining ijodiy iqtidorini oshirishdagi ahamiyati.
3. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi

Tayanch tushunchalar: PIRLS tadqiqoti, boshlang'ich sinf, kasbiy – metodik, xalqaro ta`lim.

Xalqaro dasturlar asosida pedagogni kasbiy –metodik tayyorgarligini oshirish.

Ma`lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning poydevori boshlang'ich ta`limda beriladi. Shaxs ongi va uning dunyoqarashining rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham aynan shu bosqich ta`lim dasturida mavjud. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma`naviy-axloqiy va kasbiy malakalarini takomillashtirish, ular ta`lim-

tarbiya berayotgan yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining metodik kompetentligining kognitiv tarkibiy qismi o'qituvchining metodik bilimlar tizimiga egaligini va bu bilimlarning o'zi uchun ham, kasbiy faoliyati uchun ham, kasbiy o'sish uchun ham muhimligi va ahamiyatini tushunishni o'z ichiga oladi.

Faollik komponenti metodik faoliyatning asosiy turlarini amalga oshirish, ularning faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash, ularning kutilgan, rejalashtirilgan natijalarga muvofiqligi asosida o'zgartirish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchining ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyasining asosini uning uslubiy faoliyatida talab qilinadigan va jamiyatga yetarlicha faol ta'sir o'tkazish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar tashkil etadi. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini o'rganish natijasida metodik kompetentlik tushunchasining bir qancha vazifalarini keltirish mumkin: akmeologik, innovatsion, bashoratlash, integral, rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi, refleksiv[1].

Jahon oliy ta`lim muassasalarida o'qituvchilarning PIRLS - (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarlik sifatini ta'minlash, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, o'qituvchilarni PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'quvchilarning savodxonligini baholashning xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, o'qituvchilarini Xalqaro baholash

dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, xalqaro tadqiqotlar topshiriqlarini yechishga bo'lgan ko'nikmalarini rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, boshlang'ich sinf o'qituvchisining professionalligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikada so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (PF-5712-son) gi farmonida, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, o'qitish metodikasini takomillashtirish, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

"Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish" muhim ustuvor vazifa

sifatida belgilandi. Bu ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarliklarini yangi pedagogik texnologiyalar va xalqaro baholash dasturlari asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4708-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli qarorlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli 129 qarorlari asosida amaliy ishlarni amalga oshirish bugunki kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

PIRLS o'qishning ikkita asosiy maqsadini baholaydi, bu yosh o'quvchilar maktabda ham, maktabdan tashqarida ham o'qishning ko'p qismini hisobga oladi: adabiy tajriba, ma'lumot olish va undan foydalanish. Bundan tashqari, PIRLS o'qish uchun ikkita maqsadning har biri doirasida to'rtta keng miqyosli tushunish jarayonini baholaydi:

-aniq ifodalangan ma'lumotlarga e'tibor qaratish,

-to'g'ridan to'g'ri xulosalar qilish,
-g'oyalar va ma'lumotlarni sharxlash va birlashtirish, mazmun va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

PIRLS o'qishni baholash o'quvchilarni matnlarni o'qishga va ular bilan muloqot qilishga hamda tushunish savollariga javob berishga undaydigan qiziqarli va vizual jihatdan jozibali formatda taqdim etilgan turli o'qish matnlarini o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo'lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u yetarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi. Matndagi muhim g'oyalarni va ularning o'zaro munosabatlarini ko'rsatadi. Asosiy g'oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo'yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratadi.

PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilar bilimlarini baholash mezonlari asosida ish olib boriladi.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilish o'z vaqtida va tizimli ravishda o'tkazilgandagina zarur o'quv va tarbiyaviy samara beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining muvaffaqiyatlari qanday ekanligini hamma vaqt bilishi kerak, shundagina u o'quvchilarning xatosini o'z vaqtida aniqlashi, uni tuzatishi, tegishli yordam ko'rsatishi mumkin bo'ladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish ular uchun o'quv mehnatining motivlarini ko'p jihatdan belgilaydigan rag'batlantiruvchi omil bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilib, ularga baho qo'yadi. Qo'yiladigan baho obektiv va haqqoniy bo'lishi kerak. To'g'ri qo'yilgan baho o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini baholashga va zarur kuch-quvvatni, aniq itiqbollarini belgilab olishlariga yordam beradi. Bahoning tarbiyaviy roli ana shularda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilishga differensiallangan tarzda yondoshish o'quv ishining har xil bosqichlarida ularning ishlab chiqarish tajribalarini va umumta'lim tayyorgarligini hisobga olishda ham namoyon bo'ladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish va baholashda ularning *individual xususiyatlari* e'tiborga olinishi kerak. Tabiiyki, sinfdagi hamma o'quvchilarga bilimlarning hajmi va sifati jihatidan bir xil talablar qo'yiladi. Ammo, shu bilan birga, ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarning jur'atsizlik yoki tortinchoqlik, sust fikrlash, o'ziga ortiqcha ishonish, jismoniy kamchilik kabi xislatlarini ham e'tiborga olish zarur. Biror uzrli sababga ko'ra ayrim o'quvchilarning vaqtincha qiyinchilikka tushib qolishini ham o'qituvchi nazaridan qochirmasligi kerak. O'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish natijalari ma'lum darajada o'qituvchi pedagogik mahoratining ko'rsatkichi bo'lib, o'qituvchi ishini tashkil etishga va o'quvchilarni o'qitish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

PIRLS tadqiqotlariga o'quvchilar bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o'qish.

2. Axborotni o'zlashtirish va foydalanish maqsadida o'qish.

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o'qish

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	400 - 474	1. Matnning muayyan qismlarini ajratib ko'rsatish. 2. Ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.
O'rta	75 - 549	1. Voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish. 2. Matnning umumiy g'oyasini aniqlash. 3. Matn tarkibining elementlarini ochib berish. 4. Qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish
Yuqori	550 - 624	1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his-tuy g'ularini taqqoslash va qiyoslash. 2. Ularning o'zaro aloqalarini tushuntirish. 3. Matnda qo'llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o'tkazish.

Oliy	625 va undan yuqori	1. Matnning asosiy g'oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish. 2. Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his-tuy g'ularini izohlash orqali javob berish. 3. Matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash
------	---------------------	--

2. Axborotni o'zlashtirish va foydalanish maqsadida o'qish

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	400 - 474	1. Matda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash. 2. Kerakli axborotni o'zida mujassamlashtirgan gapni ajratish. 3. Xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish.
O'rta	475 - 549	1. Matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish. 2. Matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish.
Yuqori	550 - 624	1. Matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash. 2. Matndagi alohida gaplar o'rtasidagi

		<p>mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash.</p> <p>3. Matn mazmunini izohlab berish.</p> <p>4. Turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash.</p>
Oliy	625 va undan yuqori	<p>1. Matnning turli qismlaridagi murakkab ma'lumotlarni anglash va asoslash.</p> <p>2. Matndagi ma'lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elementlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish.</p> <p>3. Matnlar, xaritalar, illustrasiyalar, diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish.</p>

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi quyidagi turlardan iborat:

Adabiy xarita – badiiy asarlarning strukturasi belgilaydi. Janr – masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va x.k.;

Axborot xaritasi – sujetsiz matnlardagi ma'lumotlarni qayd qiladi. Turlar – masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k.

Adabiy xarita. O'qish savodxonligini tekshirish bo'yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi. Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma'lumotni sanab bering (sarlavha, so'zlar soni, o'qish darajasi va janri).

2-qadam. Matnning mavzusini aniqlang va tasvirlab bering.

3-qadam. Vaziyatni aniqlang va ta'riflab bering, asosiy qahramonlarni sanab o'ting, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoriting.

4-qadam. Asosiy sujet elementlarini aniqlang, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini toping.

5- qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab bering.

6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan tayanch iboralar va lug'atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlang va sanab bering.

Xalqaro dasturlar va tadqiqotlarning kelajak o'quvchisining ijodiy iqtidorini oshirishdagi ahamiyati.

Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish lozim:

1. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish;

2. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliyot bilan bog'lash, tarbiya va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari asosida takomillashtirish;

3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish;

4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga noan'anaviy kommunikativ metodlarning elektron didaktik vositalar bilan ta'minlash asosida metodik tavsiya ishlab chiqish.

Mazkur tavsiyalar asosida kelajak o'qituvchisi quyidagi mezonlar asosida shakllanadi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish boshlang'ich ta'limda o'qitilayotgan fanlarga kiritilgan yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasini hisobga olib, ijodiy yondashuvli faoliyatini individuallashtiradi;

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli o'zini o'zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish, pedagogning shaxsiy-motivatsion yo'nalganligiga ustuvorlik berish hamda ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi didaktik-o'yinli topshiriqlarni ishlab chiqadi;

3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligi ikki yoki undan ortiq manbalardagi ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarishni o'rgata olish hamda kognitiv-kreativ, jarayonli-integrativ mezonlarining natijadorligini ta'minlashga qaratilgan ishchan integratsion-didaktik muhitni yaratadi;

4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga o'rgatish jarayoni integrative fasilitatsion ta'lim strategiyalariga doir o'quv topshiriqlarining intensiv

majmuasini rivojlantiruvchi maqsadga mos ravishda bosqichma bosqich qo'llay oladi;

5. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish modelini moslashuvchanlik, amaliyot bilan bog'liqlik, tarbiya va rivojlantiruvchi ta'lim kabi tamoyillarga asoslanadi;

6. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligi takomillashadi;

8. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishga mo'ljallangan "Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga so'rovnoma", "Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga so'rovnoma" hamda o'quvchilarning o'qib tushunishga mo'ljallangan tajriba-sinov materiallarini ishlab chiqadi.

9. Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha multimediali elektron ta'limiy resurs yaratadi.

PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. *Matn.* Hajmi 1000 ta so'z gacha, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun hajmi 400-500 ta so'z bo'lishi lozim.

2. **Mavzu.** Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berish kerak.

3. **Til.** Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora (taqqoslash) yoki epitet (sifatlash) kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi. Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4. **Mazmuni.** Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan bo'lishi lozim.

5. **Bog'liqlik va ketma-ketlik.**

Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak.

Axborot matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketmaketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat:

- adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar o'qish (she'rlar bo'lmasligi kerak);

- ma'lumot olish va foydalanish maqsadida ma'lumot beruvchi qo'llanmalar broshyuralar, tarjimai hollar, jurnallar o'qish.

Badiiy asar matni ustida ishlashda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kattalarning yordami zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylar o'quvchiga asarning badiiy-estetik ma'nolarini tushuntira olishlari juda muhimdir. O'qilgan asardan ma'naviy ozuqa ololgan o'quvchigina hayotning pastu-balandini anglab yetadi va kelajak hayotida bu bilim va tajribalari asqotadi.

Boshlang'ich sinf darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. O'qish, tabiatshunoslik, tarbiya darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim, ham tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

O'quvchilar matnlar bilan nafaqat darsliklar, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarda berilgan o'zbek va chet el asarlari orqali ham tanishib boradilar. Ushbu uslubiy qo'llanmada o'zbek va chet el asarlari orqali o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish va asar tahlili ustida ishlash texnologiyasi haqida ma'lumotlar beriladi.

“NAVRO‘Z” BAYRAMI



Navro‘z – yangi kun demakdir. 21-mart – Navro‘z bayrami. Navro‘zda tabiat uyg‘onadi. Birinchi bo‘lib chuchmoma, boychechakla ochiladi. Onalarimiz sumalak pishiradilar. Yalpiz, jag‘ - jag‘, ismaloq kab ko‘katlardan terib, ko‘k somsalar yopadilar. Ko‘chatlar ekilib, hovli-joylar supuriladi. Ko‘chalar tozalanib, yasatiladi. Urishganlar yarashadilar. Bayramda turli tomoshalar bo‘ladi. Hamma birgalikda o‘ynab-kuladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, boshqa qadriyatlar qatorida “Navro‘z” bayrami yana tiklandi. Hozir “Navro‘z” umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi, 21-mart dam olish kuni deb e‘lon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsertlar beriladi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro‘zga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkaziladi, sumalak, halim va boshqa tansiq taomlar pishiriladi. Navro‘z kunlari hokimliklar, mahallalarning faollari, xayr-ehson tashkilotlari - mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriylari, yolg‘iz

keksalar huzuriga tashrif buyurib, ularni qutlab, sovg‘a- salomlar ulashadi.

Navro‘z keldi, soz keldi,

Turna keldi, g‘oz keldi.

Yam-yashil chorbog‘lardan

Bulbulday ovoz keldi. (Xalq qo‘shig‘i)

TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq: “Navro‘z” bayramini nima uchun milliy bayram deyimiz?

2-topshiriq: Matndan nimani eslab qoldingiz. Shularni yozing.

3-topshiriq: Rasmga qarab “Navro‘z”da qilinadigan ishlarni yozing



4-topshiriq: Har bir matnga sarlovha qo‘ying.

Bahor oylariga mart, aprel, may oylari kiradi. Bahorda gullar ochiladi, bulutli, quyoshli havo bo‘ladi, qushlar uchib keladi. Navro‘z bayrami nishonlanadi.

“Navro‘z” – yangi kun degani. O‘zbek xalqi 21- martda bu bayramni nishonlaydilar. Sumalak, halim, ko‘k somsalar pishiradilar, ezgu niyat qiladilar.

Sumalakni o'choqda pishiradi, bug'doyni ozgina o'stirib, yanchib, undan sumalak tayyorlanadi, sumalakka yong'oqlar, toshlar solinadi.

5-topshiriq: Test.

1. Qachon kun bilan tun teng bo'ladi?

a) 1-yanvar b) 21-mart d) 1-sentabr

2. Navro'z taomini aniqlang?

a) halim b) somsa d) norin

3. Sizning millatingiz qaysi millat?

a) O'zbek b) Rus d) Qirg'iz

4. Bir yilda necha fasl bor?


a) 2 ta b) 3 ta d) 4 ta

5. Amir Temur qaysi faslda tug'ilgan?

a) bahor b) qish d) yoz


6-topshiriq: "Zinama-zina" usulidan foydalanib, gullarni ochilish tartibida joylashtiring.

Atirgul, lola, qizg'aldoq, boychechak, chuchmoma, binafsha.



7-topshiriq: Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi ?

8-topshiriq: "Klaster" usulidan foydalanib, bahoriy taomlarni va ularga ketadigan mahsulotlarni yozing.




9-topshiriq: "Navro'z" bayrami kunida bahor faslining nechanchi soatiga to'g'ri keladi?

10-topshiriq: Nima uchun kun bilan tun teng bo'ladi? Sababini yozing.

11-topshiriq: "Navro'z" bayrami bilan "Mehrjon" bayramining farqini tahlil qiling.

12-topshiriq: "Klaster" usulidan foydalanib, sumalakka ketadigan mahsulotlarni va bu mahsulotlarning bugungi kundagi narxini yozing.



13-topshiriq: “Navro‘z” bayrami tarixi haqida nimalar bilasiz?

14-topshiriq: O‘zbek xalqining yana qanday milliy bayramlari bor?

15-topshiriq: Matnda berilgan xalq qo‘shig‘ini mazmunini izohlang


Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o‘quv dasturlari va yosh o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta‘limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta‘lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi.

Xalqaro ekspertlar ta‘kidlashicha, boshlang‘ich sinflarda maktab o‘quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor qo‘yilgan. PIRLS tadqiqotining natijalari maktab o‘quvchilarining o‘qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab

va oilaning ta‘lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o‘qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta‘sir ko‘rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ta‘minlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogning kasbiy-metodik tayyorgarligi deganda nimani tushunasi?
2. Xalqaro tadqiqotlar talablariga javob bera oladiga boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmonining maqsad mohiyati nimadan iborat?
4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashdan ko‘zlangan maqsad ?
5. 2-3 sinf darsliklaridan mavzu tanlab, PIRLS asosida savollar va testlar namunasini yarating! (kamida 15 ta).



6-mavzu: PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash tamoyillari

Reja:

1. Tanqidiy fikrlash uslubini rivojlantirish muammosi
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi
3. PIRLS daftarchasi bilan ishlash

Tayanich tushunchalar: Tanqisiy fikrlash, PIRLS daftarchasi, fikrlash texnologiyasi, xalqaro baholash, mantiqiy va tanqidiy fikrlar.

Doimiy ravishda o'sib borayotgan va axborot makonining roli ortib borayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida har qanday darajadagi mutaxassisga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib bormoqda, bular harakatchanlik, kasbiy faoliyat bo'yicha qaror qabul qilishda mustaqillik va uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishdir. Bu o'quv jarayoniga pedagogik va uslubiy yondashuvlarning tubdan o'zgarishini anglatadi, bunda bilimlar shaxsni rivojlantirish mexanizmlariga qaratilgan bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash uslubini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogikada eng dolzarb masalalardan biri bo'lib ko'rinadi, bu axborot makonining rivojlanishi va tanqidiy baholash va mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi bilimlar bilan bog'liq.

Tanqidiy fikrlash - bu shunchaki faktlarni bilish emas.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Faktlarni o'qish yoki darslikka javob berish o'rniga, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarni ma'lumotni bilishdan nariga o'tishga va ular haqiqatan ham o'ylaydigan va ishonadigan narsalarning mohiyatiga kirishga undaydi. Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishning eng yaxshi usullaridan biri bu - savollarni to'g'ri tuza olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko'rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o'z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko'p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to'xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste'molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak.

Bolalar ota-onaning o'zi qanday savol berayotganini, ularda aqlning qiziquvchanlik qobiliyatini ko'rmasalar, ota-onalarning o'zi bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mushkul bo'ladi.

Ma'lumki, ijodiy fikrlash qiziqarli narsalarni yaratish, san'at, ijoddek tuyuladi. Aslida esa har bir inson ijodiy fikrlashini rivojlantirishi kerak, chunki bu qimmatli qobiliyatidir.

“Qarang — fikrlang — o'ylaning” usuli

Uni maktabda emas, balki kundalik oilaviy muhitda ishlatish yaxshiroqdir, chunki o'rganishdagi eng yaxshi narsalar tabiiy sharoitda sodir bo'ladi. Bu qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Agar hayvonot bog'iga borgan boladan: "Senga nima yoqdi, nimani ko'rding?" deb so'ralsa va batafsil javob bera olmasa, demak, uning miyasi shu paytdagi yangi holatlarni eslab qolmagan.

Navbatda kutib turgan joyda bolangizga savollar bering:

Nimani ko'ryapsan?

Bu haqda nima deb o'ylaysan?

Bu seni nima haqida o'ylashga majbur qilyapti?

Ko'rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom eting. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantira turib, "Yana nima?" deb so'rang.

"Bu haqida nima deb o'ylaysan?", "Qanday xulosa chiqarish mumkin?". Miya xulosalarni ishlab chiqarishi kerak. "Demak, ... qilish kerakmas", "Demak, shunday... yo'l tutish kerak".

Bolada qanday savollar tug'iladi? "Nega???", "Bularning barchasi qancha davom etadi?", "Agar qoidalar buzilsa, nima bo'ladi?", "Buni qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin?".

Bu taksida yurganda, ekskursiyalarda, mehmonga borganda, fotosuratlarni tomosha qilganda o'ynash mumkin bo'lgan o'yin. Bolalar kam savol berishsa, bu ongning qiziquvchanligi u qadar rivojlanmaganligini anglatadi, buning ustida ko'proq ishlash kerak. Bolalar bilan bu kabi suhbatlar tez-tez bo'lib tursa, shuncha yaxshi bo'ladi.

Har safar topshiriq berganingizda, darhol hamma biladigan, ijodiy bo'lmagan so'zlar va nomlarni chiqarib tashlang. Bola boshqalar

ko'rgan va boshqalar ko'rmaydigan narsalarni ko'rishni o'rganishi kerak.

"Nima sovg'a qilamiz?", "Qanday tabriklaymiz?", "Qayerga boramiz?", "Matematikadan bahoni qanday tuzatamiz?", "Qaysi kitobni o'qiymiz?" "Plastik idishdan buyum yasash kerak (vaza, qalam qutisi, raketa dema, o'tgan gal yasaganmiz)", "Kun qanday o'tdi?" (Yaxshi, yomon, o'rtacha, dahshatli, odatiy degan javoblarni chiqarib tashlang), "Men ilgari shunday deb o'ylar edim ... Endi esa ... deb o'ylayman" usuli kabilar misolida.

Bunda refleksiyaga e'tibor qaratiladi. Tafakkur qilishni bilmagan bola maktabda ham, uyda ham o'qimaydi. Uning miyasi yangi bilimlarni, taraqqiyotni, fikrlash o'zgarishini muhrlashga o'rganmagan hisoblanadi.

Kommunikatsiya va hamkorlik

Ota-onalar uchun bolaning ko'p do'stlari bor-yo'qligini, ular bilan qanchalik tez-tez uchrashib turishini, ular bilan yurishini, tinglashni bilishini, muzokara olib borishini, tashabbus ko'rsatishini, murosaga kelishga tayyorligini kuzatish muhimdir.

Chet el ta'limida "**Besh P**" konsepsiyasi mavjud.

Purpose - "maqsad", passion— "ehtiros", people—"jamoat", process - "jarayon", performance - "natija". Agar milliy ta'limda ushbu "**Besh P**" konsepsiyasi bo'lsa va buni o'quvchilarga o'rgatilsa, ularda hammasi yaxshi bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi ko'plab tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Har qanday yoshda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish kerak. Metodologiya o'z-o'ziga qarshi kurash, qiyinchiliklarni bartaraf etish - amaliy komponent, yechimlarni qidirish, natijalarni tushunish kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi qanday darajaga erishishga yordam beradi? O'quvchiga savollar berishga, ma'lumotni tartiblashga, o'z nuqtai nazarinigiz bilan bahslashishga va faoliyati natijalarini baholashga o'rgatadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Analitik fikrlash: Muammolarga analitik ko'z bilan yondashish murakkab masalalarni kichik bo'laklarga bo'lish va ularning ahamiyatini o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, tendentsiyalarni aniqlash va takliflarri qabul qilish.

Ochiq fikrlash: o'tmishdagi kognitiv noto'g'ri fikrlarni yo'qotish va turli nuqtai nazar va konstruktiv fikr-mulohazalarni qabul qilish. Ochiq fikrda sinf o'quvchilari innovatsiyalarni rag'batlantiradigan yangi g'oyalarni yaratish .

Kreativ fikrlash: Ijodiy fikrlash yordamida bitta muammoni hal qilish uchun bir nechta g'oyalarni ishlab chiqish mumkin, masalan, ta'lim natijasi va o'quvchilarning ruhiy holatini oshirish uchun samaraliroq dars jarayonini tashkil qilishva amaliyot bilan bog'lash.

O'z-o'zini aks ettirish: O'z-o'zini tekshirish, sog'lom hamkorlik va fikrlash jarayonlarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot xalqaro muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan ishlab chiqilgan va barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun yagona hisoblanadigan yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Har bir mamlakatda milliy tadqiqot koordinatori tayinlanadi, u ishtirokchi mamlakatning ta'lim vazirligi va ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro uyushma o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida aniqlanadi. Shunday qilib, mamlakat qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish uchun tegishli infratuzilma va resurslarning mavjudligini kafolatlaydi. Tadqiqot vositalarini ishlab chiqish uchun asos sifatida "TIMSS baholash asoslari va spetsifikatsiyalari" ning hujjati qo'llaniladi. Bu hujjatda o'quvchilarning tabiiy-matematik tsikldagi ta'lim yutuqlarini baholashning umumiy yondashuvlari va test topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishda namoyish etishi kerak bo'lgan bilim faoliyati

turlari, o'quvchilar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalarini tavsiflovchi asosiy omillar ro'yxati, tahlil qilish uchun so'rovnoma jarayonida to'planadigan ma'lumotlar, topshiriqlardan namunalari keltirilgan.

Tadqiqot vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-o'quvchilar yutuqlarini sinash;

-respondentlarning so'rovnomalari (o'quvchilar va o'qituvchilar, maktab ma'muriyati, milliy Koordinator va o'quv sifati bo'yicha xalqaro kuzatuvchi);

-uslubiy majmua (tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish, o'quvchilarni tanlashni shakllantirish, testlarni o'tkazish, javobi erkin tanlanadigan topshiriqlarni tekshirish, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha milliy va maktab koordinatorlari uchun ko'rsatmalar);

-Dasturiy ta'minot to'plami (maktablar, sinflar va o'quvchilarning xalqaro va milliy ma'lumotlar bazalari, tadqiqot natijalari).

Tadqiqotning asosiy komponentlari quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqilgan test bloklari hisoblanadi:

* tekshiriladigan o'quv- o'zlashtirish faoliyatining mazmun va turlarini yetarli darajada qamrab olish;

* ularning ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materiallarning mazmuniga maksimal darajada mos kelish;

* sinalayotgan o'quv materiallarining matematik va tabiiy-ilmiy ta'limning rivojlanishi nuqtai nazaridan ahamiyati;

* topshiriqlarning o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi;

* topshiriqlarning ommaviy ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi;

Matematika fanidan ta'lim yutuqlarini baholashda turli xil topshiriqlar (javobni tanlash, qisqa va to'liq yoritilgan javobni berish, amaliy vazifalar) qo'llaniladi.

Topshiriqlar quyidagi mavzular bo'yicha ishlab chiqiladi:

Sonlar, algebra, o'lchashlar, geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash.

Quyidagi ko'nikmalar baholanadi: dalillar va protseduralarni bilish, tushunchalarni qo'llash, ko'p mehnat talab qiladigan muammolarni hal qilish, tahlil qilish, gipotezani ilgari surish, baholash, isbotlar va boshqalar.

Tabiatshunoslik bo'yicha ta'lim yutuqlarini baholashda ham turli xil vazifalar qo'llaniladi (javobni tanlash, qisqa va to'liq yoritilgan javobni berish, amaliy vazifalar). Vazifalar quyidagi mavzular bo'yicha ishlab chiqiladi: Biologiya, Kimyo, Fizika, Geografiya, Atrof-muhit.

Quyidagi ko'nikmalar baholanadi: dalillarni bilish, konseptual tushunish, analitik qobiliyatlar, umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish va boshqalar.

Tadqiqot jarayonida olib boriladigan qo'shimcha so'rovnomalar o'quvchilar va o'qituvchilarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari, ta'lim muassasalari ma'muriyati, o'qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalari nuqtai nazaridan tabiiy matematik sikldagi fanlardan o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilar oilalarining ijtimoiy mavqei, maktab turi, ta'lim standartlari va umumiy ta'lim talablari to'g'risidagi

ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. O'quvchilarning ta'lim yutuqlarini o'rganish natijalarining xolisligi bevosita ishtirokchilarni tanlab olish jarayoniga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot ishtirokchilarining sifatli tanlanishi xalqaro muvofiqlashtirish markazining rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quvchilar sonini ko'rsatgan holda hududlar va maktablarning yig'ma ro'yxati tuziladi. Xalqaro Muvofiqlashtirish Markazi, ehtimoliy-proporsional usul bilan har bir mamlakatdan kamida 150 ishtirokchi maktabni tanlab oladi. Tanlangan maktablarga to'rt xonali identifikatsiya raqami beriladi. Shu bilan birga, Tanlashning reprezentativligi (kutilmagan holatlar tufayli) buzilganda sinovda ishtirok etuvchi ta'lim muassasalarini almashtiradigan maktablar aniqlandi. Maktablarning har biri uchun uni almashtirish mumkin bo'lgan ikkita maktab aniqlanadi. Tadqiqot natijalarining har bir ishtirokchi mamlakat kesimida taqqoslashini ta'minlash uchun tanlangan sinflarda rejalashtirilgan o'quvchilarning kamida 85% ishtirok etishi majburiy hisoblanadi.

Matematika mazmun doirasida

Bolalar kuchli bilim egasi bo'lishi uchun matematikani tushunishi, o'rganishi va undan foydalana olishlari lozim. Avvallambor, matematikani o'rganish hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi, qat'iyatlilikka o'rgatadi. Matematika fani kundalik hayotda, masalan, hisob-kitob ishlari, pul muomalasida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, muhandislik, arxitektura, buxgalteriya, bank ishi, biznes, tibbiyot sohasi, ekologiya,

kosmonavtika sohalari kuchli matematik bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

2019-yilda u yettinchi marotaba o'tkazildi. Matematika asoslarini o'rgatishda, 4- va 8-sinflarni tayyorlab borishda TIMSS-2015 tadqiqoti namunalaridan foydalanildi.

TIMSS-2019 tadqiqotida ba'zi TIMSS masalalari yangilangan bo'lib, qog'oz formatdagi topshiriqlardan raqamli (kompyuter) formatdagi topshiriq namunalarini baholashga o'tladi. Bu yangicha metodlarni yaralishiga olib keldi.

TIMSS-2019 ikkita baholash tizimi ham quyidagi parametr bo'yicha shakllantirilgan:

- Baholash mezonining tarkibi;
- Mulohaza yuritishning muhim bo'lgan kognitiv o'lchovi.

1-jadvalda TIMSS-2019 ning 4- va 8- sinflarda kognitiv va mazmun sohasi bo'yicha testning aniq maqsadga yo'naltirilgan foizini ko'rsatilgan.

To'rtinchi sinf	
Mazmun sohasi	Foizlarda
Sonlar	50 %
O'lchov va geometriya	30 %
Ma'lumotlar	20 %

Sakkizinchi sinf	
Mazmun sohasi	Foizlarda

Sonlar	30 %
Algebra	30 %
Geometriya	20 %
Ma'lumotlar va ehtimollik	20 %

Kognitiv sohalar		Foizlarda
To'rtinchi sinf		Sakkizinchi sinf
Bilim	40%	35%

Qo'llash	40%	40%
Mulohaza yuritish	20%	25%

Matematika mazmun doirasi – to'rtinchi sinf

2-jadvalda TIMSS to'rtinchi sinf matematika fanining mazmun doiralari va ularning har biri uchun maqsadga yo'naltirilgan ko'rsatkichlari taqdim etilgan. Har bir tarkib doirasi mavzuiy sohalarni o'z ichiga oladi va o'z navbatida, har bir mavzuiy soha bir nechta mavzularni qamrab oladi. To'rtinchi sinfda har bir mavzu deyarli bir xil baholash tizimiga ega:

To'rtinchi sinf	
Mazmun doirasi	Foizlarda
Sonlar	50 %
O'lchov va geometriya	30 %

Ma'lumotlar	20 %
-------------	------

Sonlar bo'limida butun sonlar ustuvordir va o'quvchilar butun sonlarni hisoblay olishi, muammolarni yechishda hisob-kitoblardan foydalanishi kerak. Algebradan boshlang'ich tushunchalar to'rtinchi sinfda TIMSS baholashning tarkibiy qismidir, shu jumladan, oddiy tenglamalarda o'zgaruvchi (noma'lum) tushunchasini tushunish va miqdorlar o'rtasidagi munosabatni yecha olish talab qilinadi. Shu bilan birga, o'quvchilar uchun oddiy va o'nli kasrlarni tushunish ham muhimdir. O'quvchilar muammolarni hal qilish uchun kasrlar va ularni taqqoslash qo'shish va ayirishni bilishlari kerak.

Butun sonlar

1. Sonlarning xona birliklariga oid bilimni namoyish etish (2 xonalilardan 6 xonalilargacha); butun sonlarni matnlar, diagrammalar, sonli qatorlar yoki belgilar orqali ifodalash;
2. Oddiy vazifalarni bajarish uchun hisob-kitoblarda (4 xonali sonlarga) qo'shish va ayirish;
3. Oddiy vazifalarni bajarish uchun hisob-kitoblarda ko'paytirish (bir xonali son bilan uch xonali sonlar va ikki xonali son bilan ikki xonali sonlar) va bo'lish (uch xonali sonlar bilan bir xonali sonlar).
4. Toq va juft sonlarni ko'paytiruvchilarga ajratish va bo'linuvchilarni topish, sonlarni yaxlitlash (o'n minggacha) va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan muammolarni hal qilish;
5. Ikki xonali yoki undan ortiq sonlardan iborat bo'lgan masalalarni yechish.

Ifodalar, oddiy tenglamalar va munosabatlar

1. Noma'lum qatnashgan masalalarni yechish (masalan, $17+x = 29$)
2. Noma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni ifodalash uchun matnli yoki sonli qatorni aniqlash yoki yozish.
3. O'zaro bog'liq bo'lgan munosabatlarni aniqlash (masalan, bog'liq atamalar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlab berish va qoida asosida butun sonlarni hosil qilish).

Oddiy kasrlar va o'nli kasrlar

1. Kasrlarning bir necha turlarini bilish; oddiy va o'nli kasrlar; oddiy kasrlarni taqqoslash, ularni qo'shish va ayirish, muammoli vaziyatlarni hal etish (kasrning maxraji 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12 yoki 100 qiymatlari bo'lgan masalalarni bajarish).

2.2. O'nli kasrlarni taqqoslash, oddiy kasrlarni o'nli kasrga aylantirish, o'nli kasrlarni qo'shish va ayirish (O'nli kasrlar bitta yoki ikkita kasrdan iborat bo'lishi mumkin, bu esa pul bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi).

O'lchov va geometriya

To'rtinchi sinfda o'quvchilar uzunlikni o'lchash uchun chizg'ichdan foydalanadi; uzunlik, massa, hajm va vaqt bilan bog'liq masalalar; oddiy ko'pburchaklarning yuzi va perimetrlarini hisoblash; hajmlarni aniqlash uchun kublardan foydalanish. O'quvchilar chiziqlar, burchaklar va har xil ikki o'lchovli va uch o'lchovli shakllarning xususiyatlarini aniqlay olishlari kerak. Fazoviy shakl –geometriyani o'rganishning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilardan turli geometric shakllarni tasvirlash va chizmalarni chizish so'raladi. Shuningdek, ular

geometric munosabatlarni tahlil qilishlari va ushbu munosabatlarni yechimda qo'llay olishlari kerak.

O'lchov

1. Uzunliklarni o'lchash va baholash (millimetr, santimetr, metr, kilometr);

2. Og'irlik o'lchovi (gramm va kilogramm), hajm (millilitr va litr) va vaqt (minutlar va soat) bilan bog'liq masalalarni hal qilish; birliklarning tegishli turlarini va o'lchamlarini aniqlash hamda masshtablarni o'qish.

3. Ko'pburchaklarning perimetrlari, to'rtburchaklar yuzi, kvadratlar bilan qoplagan shakllarning yuzi va kublar hajmini topish bilan bog'liq muammolarni hal qilish.

Geometriya

1. Parallel va perpendikulyar chiziqlarni aniqlash va chizish; o'tkir va o'tmas burchaklarni aniqlash va yasash; burchak kattaliklarini taqqoslash.

2. Doiralar, uchburchaklar, to'rtburchaklar va boshqa ko'pburchaklarni tasvirlash, taqqoslash va yaratish uchun elementar xususiyatlardan, shu jumladan, chiziqli va markaziy simmetriyadan foydalanish.

3. Uch o'lchovli shakllarni (kublar, piramidalar, konuslar, silindrlar va shar) tasvirlash va taqqoslash, ularni ikki o'lchovli tasvirlar bilan bog'lash.

Muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish.

Ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri o'qishdan tashqari savollarga javob berish uchun foydalanish (masalan, muammolarni yechish va ma'lumotlardan foydalangan holda hisob-kitoblarni bajarish, ikki yoki undan ortiq manbalardagi ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarish).

Matematika mazmun doirasi – sakkizinchi sinf

TIMSS mazmuni – sakkizinchi sinf va har bir sinf uchun maqsadli foizlar ko'rsatilgan. Har bir mazmun doirasi mavzuiy sohalarni o'z ichiga oladi va, o'z navbatida, bir nechta mavzularni qamrab oladi. Sakkizinchi sinfda har bir mavzu taxminan bir xil baholash tizimiga ega.

Sakkizinchi sinf	
Mazmun sohasi	Foizlarda
Sonlar	30 %
Algebra	30 %
Geometriya	20 %
Ma'lumotlar va ehtimollik	20 %

Sakkizinchi sinfda, baholash tizimining 30 % i uchta mavzuiy sohadan iborat:

- Butun sonlar (10%)
- Oddiy va o'nlik kasrlar (10%)
- Munosabat, ulush va foiz (10%)

Oddiy va o'nli kasrlar

1. Oddiy va o'nli kasrlarni taqqoslash, qisqartirish.

2. Oddiy va o'nli kasrlar bilan hisob-kitoblarni bajarish.

Munosabat, ulush va foiz

1. Teng kuchli qiymatga ega bo'lgan tenglamalar ustida amallar.
2. Oddiy va o'nli kasrlar, foizlar o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olgan holda, proporsiya va foizlarga bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish.

Ifodalar, amallar va tenglamalar

1. Berilgan o'zgaruvchilar qiymatlaridan ifodaning qiymatini topish.
2. Yig'indi, ko'paytma va darajalarni hisoblash, ifodalarni soddalashtirish, teng kuchli ifodalarni aniqlash, taqqoslash.
3. Muammoli vaziyatlarni aks ettiruvchi tenglamalar yoki tengsizliklarni yozish.
4. Chiziqli tenglamalar, chiziqli tengsizliklar va ikki o'zgaruvchili chiziqli tenglamalar sistemasi, real hayotdagi vaziyatlarni ifodalovchi masalalar yechimlarini topish.

Munosabat va funksiyalar

1. Jadvallar, grafiklar yoki matnli masalalarni, chiziqli funksiyalarni izohlash, natijani hisoblash; Burchak koeffitsienti va koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalarini o'z ichiga olgan chiziqli funksiyalarning xossalari aniqlash.
2. Jadvallar, grafiklar yoki matnli masalalarda darajali funksiyalarni (masalan, kvadrat darajali) izohlash, yechish; sonlar, mulohazalar va algebraik ifodalardan foydalanib hisoblash.

Sakkizinchi sinf o'quvchilari to'rtinchi sinfda baholangan shakllar va o'lchovlar to'g'risida tushunchalarni kengaytirish, turli xil ikki o'lchovli va uch o'lchovli figuralarning xossalarni tahlil qilish va perimetrlarni, yuzalarni va hajmlarni hisoblash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Ular muammolarni yechishda izlanishlar, o'xshashlik va Pifagor teoremasi kabi geometric munosabatlarga asoslangan holda tushuntirishlar bera olishlari kerak.


Ma'lumotlar va ehtimollik

Yuqori sinfga o'tilgan sari ko'proq ma'lumotlarni ifoda qilishning an'anaviy shakllari (masalan, chizmalar, piktogrammalar) yangi grafik shakllar (masalan, infografika) bilan to'ldirilmoqda. Sakkizinchi sinfga kelib, o'quvchilar ifodalarning ahamiyatini o'qish va ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, sakkizinchi sinf o'quvchilari ma'lumotlarning taqsimlanishiga asoslangan statistika va ularning ma'lumotlar grafigi shakliga qanday aloqasi borligi bilan tanishishlari muhimdir. O'quvchilar ma'lumotlarni qanday yig'ish, ifoda qilish va yechimini chiqarishni bilishlari kerak. O'quvchilar ehtimollar nazariyasi bilan bog'liq ba'zi tushunchalar haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lishlari kerak. 4-8-sinf o'quvchilari uchun matematika va tabiiy fanlar bo'yicha xalqaro test sinovlari natijalari alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. O'rganish natijalarini statistik qayta ishlash natijasida har bir talabaga matematika va tabiatshunoslik fanlaridan topshiriqlarni bajarish uchun alohida 1000 ballik tizimda ball qo'yiladi. 4 va 8-sinf o'quvchilari uchun xalqaro natijalar shkalasi 1995 yilda tadqiqotda qatnashgan barcha mamlakatlarning o'rtacha

ballarining o'rtacha qiymati 100 standart og'ish bilan 500 sifatida qabul qilinganligini hisobga olgan holda tuzilgan. Barcha keyingi tadqiqotlar natijalari 1995 yil miqyosida ko'rsatilgan, bu natijalarni taqqoslash va ularning o'zgarishi tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi. TIMSS tadqiqotlarida qatnashish O'zbekistonning ta'lim sifatini muntazam baholash, mamlakatning ta'lim tizimini soliq va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston TIMSS tadqiqotlarida ishtirok etish orqali, mamlakatning ta'lim sifati haqida muntazam ma'lumotlar olinib, mamlakatning ta'lim tizimini mustahkamlashda yordam beradigan ilmiy va statistik ma'lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilar va o'qituvchilarning ko'nikma va yechimlarini baholash orqali ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish uchun qator takliflar keltirilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. TIMSS nima?
2. Tadqiqotning metodologik asosi nechta darajani o'z ichiga oladi?
3. Tadqiqot vositalari nimalardan iborat?
4. Tadqiqotning asosiy komponenti sifatida qabul qilingan usul nima deb ataladi?
5. TIMSS 2019 ning baholash mezonlari va parametrlari haqida fikr bildiring.
6. TIMSS xalqaro baholash tadqiqotining ahamiyatli tomonlari qanday?



10-mavzu: Matematik savodxonlikni

TIMSS, xalqaro baholash tizimi takomillashtirish

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda matematik savodxonlikni oshiruvchi dasturlar va vositalar.
2. TIMSS tadqiqotining xususiyatlari.
3. Matematik savodxonlik aniqlash turlari

Tayanch tushunchalar:

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali takomillashgan davlatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa mamlakatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda qatnashish global miqyosda davlatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy etish yordamida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

TIMSS 1995 yildan boshlab bajarilmoqda va yillik ravishda yangilanib borilmoqda. Dasturmat yillik tarzda oquvchilar va oqituvchilarning tushunchalari, fan tushunchalari va ularning tahlil

qilish va muammolarni yechish qobiliyatlarini o'lchaydi. TIMSS natijalari dunyoning ko'pgina mamlakatlarida oqitishni takomillashtirishda qollaniladi. U oqituvchilarga va ilmiy tadqiqotchilarga oqitish tizimini rivojlantirish uchun foydalanishlarni taqdim etadi.

Dastur asosida olingan ma'lumotlar dunyodagi ta'lim tizimlarini taqqozo etish va rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega.

TIMS dasturlash metodologiyasi nima?

TIMSS metodologiyasi o'quvchilarning matematika va fan bo'yicha yutuqlarini xalqaro miqyosda taqqoslanadigan tarzda o'lchash uchun mo'ljallangan. TIMSSning asosiy metodologik elementlaridan ba'zilari:

Standartlashtirilgan testlar: TIMSS o'quvchilarning matematika va fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'lchash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanadi. Bu testlar o'quvchilarning muammoni yechish qobiliyati, kontseptual tushunchasi va boshqa muhim ko'nikmalarini baholaydi.

Sinflar o'rtasidagi taqqoslash: Talabalarning yutuqlarini baholashda TIMSS nafaqat mamlakat ichidagi, balki turli mamlakatlar o'rtasida ham ularning natijalarini taqqoslaydi. Bu ta'lim tizimlarining samaradorligi va kuchini baholashga yordam beradi.

Namuna tanlash: TIMSS ishtirokchi mamlakatlardan tasodifiy namunalar oladi va bu namunalarni vakil qilish uchun sinchkovlik bilan tanlab oladi. Bu natijalar umumiy aholi uchun qo'llanilishini ta'minlaydi.

Mustaqil va bog'liq o'zgaruvchilarni aniqlash: TIMSS talabalar muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi turli omillarni baholaydi va bu omillarning talabalar muvaffaqiyatiga ta'sirini tushunish uchun statistik tahlillarni o'tkazadi. Bu omillar talaba, maktab va o'qituvchi xususiyatlari kabi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Ushbu metodologiya TIMSS ga o'quvchilarning yutuqlarini ishonchli va har tomonlama baholash imkonini beradi hamda ta'lim tizimining kuchli tomonlari va yaxshilash yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Milliy markazga xalqaro tadqiqotlarni tashkil qilish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan tarzda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar yuklatildi.

O'quvchilarning tabiatan qiziquvchan ekanliklarini inobatga olgan holda, tabiiy fanlarni tadqiqotchilik asosida o'qitish ularning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ma'lumotlarni yodda saqlashlarini osonlashtiradi, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Matematika savodxonlikni oshirish uchun boshlang'ich ta'limda foydalanish mumkin bo'lgan dasturlar va vositalar mavjud. Bu dasturlar va vositalar sizga matematikni o'rganishda yordam berish, masalalarni

yechishda va amaliyotlarda ishlatishda foydali bo'ladi. Quyidagi misollar orqali sizga bu dasturlar va vositalar haqida batafsil ma'lumot beriladi:

Microsoft Excel - bu elektron jadval dasturi, u matematik savodxonlikni oshirishda juda foydali bo'ladi. Bu dastur orqali siz matematik amaliyotlarni amalga oshirishingiz, statistik ma'lumotlarni tahlil qilishingiz va grafiklarni yaratishingiz mumkin. Excelning formulalar va funktsiyalar qo'llanmasi sizga matematik masalalarni yechishda yordam beradi.

Geogebra - bu matematika va geometriya darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan dastur. U orqali siz grafiklarni yaratishingiz, funktsiyalarni yechishingiz, geometrik shakllarni yaratishingiz va 3D modelni ko'rish imkoniyatiga egasiz. Geogebra matematikni amaliyotlarda o'rganish uchun interaktiv vosita sifatida juda qulay.

Khan Academy - bu onlayn ta'lim platformasi, u matematika va boshqa fanlarni o'rganishda yordam beradi. Bu platforma orqali siz matematikning turli bo'limlarini o'rganishingiz mumkin, masalalarni yechishingiz va amaliyotlarda ishlatishingiz mumkin. Khan Academy matematik savodxonlikni oshirishda interaktiv darslar va misollar orqali o'rganish imkoniyatini beradi.

Matematikni o'rganishda o'quv adabiyotlar ham juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga matematikning turli bo'limlarini tushuntiradigan, masalalarni yechishda yordam beradigan va amaliyotlarda ishlatish imkoniyatini beradigan kitoblar o'qish tavsiya etiladi. Matematik kitoblar teorik bilimlarni o'rganishda yordam beradi

va matematik savodxonlikni oshirishda asosiy manba sifatida ishlatiladi. Bu dasturlar va vositalar sizga boshlang'ich ta'limda matematik savodxonlikni oshirishda yordam beradi. Ularning foydalanishini o'rganish va amaliyotlarda ishlatish orqali siz matematikni oson va samarali o'rganishingiz mumkin

TIMSS tadqiqoti quyidagi xususi yatlarga ega:

- TIMSS butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;

- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;

- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan «4- va 8-sinf o'quvchilari ishtirok etadi;

-o'quvchilarning mustaqil hayotga tayyorlik darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan masalalarni hal qilishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

- tadqiqotda ishtirokchi davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi. Shu o'rinda, «O'zbekistonning ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishi nima beradi?», degan savol tug'ilishi tabiiy. TIMSS tadqiqotida ishtirok etish quyidagilarga imkon yaratib beradi:

-umumta'lim maktablari o'quvchilarining ta'limning keyingi bosqichini davom ettirishga, shuningdek mustaqil hayotga qay darajada tayyor ekanligini aniqlash;

- umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

- o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish.

TIMSS tadqiqotlarida o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholashda quyidagi uch jihatga alohida e'tibor qaratiladi:

-topshiriqlar o'quvchilarning kundalik hayotdagi qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi;

- mazmunli muammoi (kontekst)ning hayotiyiligi;

-matematik qo'llash bosqichlarining faqat ayrimlarini emas, hammasining to'liq olinganligi, ya'ni bu jarayonning bir jihatiga erishilmagan, balki masalani biroz keyindan balki, uni matematik tilga olishda emas, balki masalani keyindan balki, uni matematik tilga olishda emas, balki masalani keyin ham, uni matematika qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning hammasini olinganligi. Bu o'quvchilarning matematik tayyorgarligini mazmuni ya'ni matematik savodxonlik jarayonida o'z aksini topgan.

Matematik savodxonlik aniqlashni turli yillardagi ko'rinishda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqotga ko'ra unga quyidagi ta'riflarni berish mumkin:

1. Tanqidiy fikrlash;

2. Ijodkorlik, ijodkorlik;

3. Tadqiqot va tahlil qilish;

4. Mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik;

5. Ma'lumotlardan jo'natish;

6. Tizimli fikrlash;
7. Muloqot qilish;
8. Mulohaza yuritish.

TIMSS xalqaro baholash dasturlari O'zbekistonda ilk marta o'tkazilganligi sababli ularni shaffof va obektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Bu borada pedagog kadrlarning xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shish maqsadida avvalgi tayyorlangan metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, mashq daftarlarining mantiqiy davomi sifatida axborotnoma tayyorlandi.

Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o'rganildi va tahlil etildi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar mobaynida tadqiqotda ishlatilgan, ammo konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llandi.

2023-yilgi tsikl mamlakatlarga bir vaqtning o'zida TIMSS va IEA ning Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligi tadqiqotida (ICILS) ishtirok etish uchun noyob imkoniyatni taqdim etdi. 2023-yilda ikkala tadqiqotning parallel ma'lumotlar to'planishi ishtirokchi tashkilotlarga ta'lim natijalarini yanada yaxlitroq tushunish imkonini berdi: ICILS o'quvchilarning kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini o'lchaydi, TIMSS esa matematika va fan yutuqlarini baholash uchun kompyuter asosidagi baholashdan foydalanadi. Ikkala tadqiqotda ishtirok etish mamlakatlarga ushbu ta'lim natijalarini bog'lash imkonini beradi.

Hundan tashqari, mamlakatlarning ikkita IEA tadqiqotida ishtirok etish yukini minimallashtirish va sinergiyani kuchaytirish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik savodxonligini oshirishda qanday xalqaro dasturlardan foydalanadi?
2. TIMSS dasturi qanday xususiyatlarga ega?
3. Boshlang'ich sinf matematik savodxonligini aniqlashda qanday ta'riflar mavjud?
4. Matematik savodxonlikni oshirishda sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar rejasi haqida fikr bildiring.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda aynan nechanchi sinflarva nechtdan o'quvchi qamrab olinadi?



11-mavzu: EGMA va EGRA xalqaro baholash dasturi. O'z-o'zini boshqaradigan EGRA va EGMA ni boshlang'ich ta'limda joriy qilish.

Reja:

1. EGRA va EGMA baholash dasturi haqida ma'lumot.
2. EGRA xalqaro baholash dasturi bilan o'qish savodxonligini baholash.
3. EGRA va EGMA baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ta'limga tayyorlash

Tayanch tushunchalar; EGRA va EGMA dasturi, boshlang'ich sinf, tadqiqotlar,

EGRA va EGMA baholash dasturi haqida ma'lumot.

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan.

Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS

kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi.

Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda.

AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'qivchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir.

Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan o'tkazishdan avval uni tekshiradi.

EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondoshuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi.

EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq

malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGMA(The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır. EGMA bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim.

EGMA quyidagi:

- raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash);
- kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish);
- raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam);
- qo'shish va ayirish;
- birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar atoridan munosib o'rin egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish

maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har xil zamonaviy, xalqaro dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun esa boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilishda ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallaridan foydalanish bilan bir qatorda EGRA va EGMA dasturlari haqida ma'lumotlar berib, ularni dars jarayonida qo'llash ham boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtgacha ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, endilikda EGRA va EGMA dasturlari orqali ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Buning natijasida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil va tezda bayon etishga o'rganadilar, o'z ustida ishlash qobiliyati shakllanadi. Xulosa qilib aytganda yuqoridagi vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi

mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi, sohadagi bo'shliqlarni aniqlashga, yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi.

EGRA va EGMA — umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi.

AQShning O'zbekistondagi elchixonasi bergan ma'lumotlarga ko'ra, EGRA va EGMA tadqiqoti 937 ta davlat umumta'lim maktabidagi 11 ming nafar o'quvchining o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz va turkman tillari, shuningdek, ikkinchi til sifatida o'zbek tiliga oid ko'nikmalarini baholaydi.

Nima uchun biz EGRA dan foydalanamiz?

Odatda o'qish testlari qog'ozda amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar ularni qabul qilish uchun kamida bir oz o'qish va yozish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu bolalarning o'qishni o'rganish jarayonining dastlabki bosqichida, ular ushbu asosiy ko'nikmalarni egallashlari qiyinlashgan. Albatta, EGRA har bir o'quvchining o'qish faoliyati jarayonida kichik topshiriqlardan olgan malakasini aniqlashi, ko'plab o'quvchilar bilan birgalikda sinovdan o'tkazish, EGRA natijalari o'qish dasturining ta'sirini baholash yoki mamlakatning sifatli asosiy ta'lim olish yo'lidagi muvaffaqiyatini o'lchash uchun ishlatilishi mumkin.

EGRA bilan o'qishni qanday baholaymiz?

Boshlang'ich sinfda o'qishni baholash (EGRA) o'quvchining o'qish qobiliyatini o'lchash uchun kichik vazifalardan foydalanadi. Qo'shimcha topshiriqlarni bajarish uchun odatda 2-4 daqiqa vaqt ketadi

va ular ovoz chiqarib, o'qituvchi gapirganda, talaba esa o'qib javob beradi. Kichik topshiriqlar eng asosiy ko'nikmalarni o'lchaydigan eng oddiy vazifalardan boshlanadi. Shu topshiriqlardan keyin ketma-ketlikda o'qishni tushunishni o'lchaydigan kichik vazifaga o'tadi.

Boshlang'ich sinflarda tovush topshirig'i o'quvchining so'zdagi birinchi tovushni aniqlash qobiliyatini ko'rsatadi. Shuningdek, u o'quvchining so'zlarni tovushlarga ajratish va bu tovushlarni boshqarish qobiliyatini o'lchaydi. O'quvchilarga so'z og'zaki aytiladi va so'zning birinchi tovushini (boshlang'ich tovushni) ajratib olish va talaffuz qilish so'raladi.

So'nggi yillarda mamlakatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

EGRA (Educational Quality Assurance) xalqaro baholash dasturi o'quv jarayonining samaradorligi, o'quvchilarning ma'lumot darajasini, o'qituvchilar va maktablarning faoliyatini baholash uchun ishlab chiqilgan.

EGRA dasturi o'quvchilarning o'qish, yozish va hisoblash qobiliyatini tekshirish uchun matematika va til ko'maklashishlari bo'yicha bajariladi. Natijalarni tahlil qilish va ta'limni yaxshilash uchun takliflar berish jihatidan bu dastur keng doira ahamiyatga ega.

EGRA xalqaro baholash dasturini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim:

1. *Dasturning metodologiyasi va o'qitish usullari*: Dastur o'quv jarayonini boshqarishda qanday metodologiyalardan foydalanilganligi, o'quv mashg'ulotlarining qanday o'tilganligi muhimdir.

2. *Ma'lumotlar to'plash usullari*: Dastur ma'lumotlarini qanday to'plash va tahlil qilishni o'rganishda qanday vositalardan foydalanilganligi.

3. *Ma'lumotlarning to'g'ri va samarali tahlili*: Baholash natijalarining obektivlik va ishonchliligi.

4. *O'quvchilar va o'qituvchilar uchun ko'rsatilgan yordam va tavsiyalar*: Dastur natijalaridan kelib chiqadigan masalalar bo'yicha o'quvchilarga va o'qituvchilarga ko'rsatilgan yordam va tavsiyalar.

5. *Ma'lumotlarining amaliyotga o'tkazilishi*: Baholash natijalari va takliflarining amaliyotda qo'llanilishiga e'tibor.

Bunday baholash dasturlari o'quvchilarning ma'lumotlari va o'qitish jarayonining sifatini oshirishga yordam berishi uchun juda muhimdir.

EGRA va EGMA baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ta'limga tayyorlash

Mustaqil ta'lim- o'quvchilarning o'zlarini mustaqil o'zlashtirish va mustaqil o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim usullaridan biridir. Bu usul o'quvchilarning o'zini o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat beradi. Masalan;

1. *O'qish*: O'quvchilar uchun mustaqil ta'limning bir qismi o'qishdir. O'quvchilar o'zlarining o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'zlariga mos bo'lgan kitoblar, maqolalar va elektron o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin.

2. *Yozish*: Mustaqil ta'limning ikkinchi qismi yozishdir. O'quvchilar o'zlarining yozish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli mavzularda yozishni o'rganishlari mumkin. Bu ularda o'quvchilar o'zlarining fikrlarini ifoda qilish, maqolalar yozish va hujjatlar tuzishni o'rganishlari mumkin.

3. *Hisoblash*: Mustaqil ta'limning uchinchi qismi raqamli hisoblashdir. O'quvchilar o'zlarining hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun matematika, statistika va boshqa raqamli ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganishlari mumkin.

4. *Muhokama*: Mustaqil ta'limning to'rtinchi qismi muhokamadir. O'quvchilar o'zlarining muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli mavzularda muhokama qilishlari mumkin. Bu ularda o'quvchilar o'zlarining fikrlarini ifoda qilish, savollar berish va javob berishni o'rganishlari mumkin.

Mustaqil izlanish o'quvchilar uchun yuqoridagi ko'rsatkichlarni shakllantirsa, o'qituvchilar uchun esa, qaysi maqbul va qaysi maqbul emas bolganligini aniqlash imkonini beradi. Bu natijalar oquvchilarga

qanday yordamlash va ularni qanday zarur vaqtlarda qollab-quvvatlash lozimligini aniqlab beradi. Agar bir nechta o'quvchilarning o'zlashtirishi belgilangan mezonlardan past bo'lsa, bu holatda maslahatlar va qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkillashtirish lozim. "O'quvchilarning darsdan tashqari shakllarini mazmunli tashkil qilishda kuzatishi va hisobot berishi ham yaxshi yordam beradi: **EGRA va EGMA dasturlari** oquvchilarning shaxsiy rivojlanishini kuzatish uchun mos keladigan baho berish tizimlaridir. Ular oquvchilarning kuzatish jarayonlarini rivojlantirish va ota-onalar, oqituvchilar va ilmiy kadrlar bilan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shuningdek, EGRA va EGMA dasturlari oquvchilarning rivojlanishini chuqur tahlil qilish va mustaqil o'qish uchun oquvchilarning yutuqlarini baholashga yordam beradi. Bu esa, o'quvchilarning o'zlarining rivojlanishini oshirish va ularni qayta tahlil qilish, talim tizimini takomillashtirish va oquv jarayonini yaxshilashga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. EGRA xalqaro baholash dasturi nima?
2. EGMA xalqaro baholash dastiri nima?
3. Xalqaro baholash dasturlarini milliy ta'lim dasturlariga qanday muvofiqlashtirish mumkin?
4. EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini qanday qilib o'zini o'zi boshqarishga o'rgatish mumkin?



TALIS

12-mavzu:

TALIS xalqaro tadqiqotlari.

Reja:

1. TALIS tadqiqotining mazmun mohiyati
2. TALIS tadqiqotining asosiy vazifalari va afzalliklari
3. TALIS 2024 tadqiqotiga tayyorgarlik

Tayanch tushunchalar; TALIS tadqiqoti, ijtimoiy mavqey, iqtidorli yoshlar, uzluksiz malaka

Biz o'qituvchilik kasbiga qadam qo'yish uchun eng yaxshilarni va talohiyatlilarni jalb qilishimiz kerak. O'qituvchilar - har bir bolaning kelgusi muvaffaqiyati uchun yaxshi bilimga asoslangan ta'lim beruvchi muhim iqtisodiyotning kalitidir.

TALIS tadqiqoti o'qituvchilarning o'zgarishlarga, o'rganish va o'z faoliyati davomida rivojlanib borishiga intilishi haqida mustahkam dalillarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ular hamkasblari va maktab rahbarlari bilan ishlashda ko'proq tashabbus ko'rsatishi, kasbiy rivojlanish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Andreas Shlyaher

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti,

Ta'lim va ko'nikmalar bo'yicha direktori

TALIS tadqiqotining mazmun mohiyati

TALIS, yoki Ta'lim va o'qitish sohasida xalqaro tajribalar (Ingliz tilida: Teaching and Learning International Survey) – bu O'zbekiston Respublikasida ham amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonini baholash va ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab mudirlari orasida o'zaro munosabatlarni o'rganish uchun tashkil etilgan xalqaro tadqiqot. Bu tadqiqotda ta'lim jarayonining mohiyati, o'qitish metodlari, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlar, maktab mudirlari faoliyati va boshqalar kabi ko'plab muhim masalalar o'rganiladi.

Bu tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonining mohiyatini tahlil qilish, o'qitish metodlarini o'rganish, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni tahlil qilish, maktab mudirlari faoliyatini o'rganish va boshqalar kabi ko'plab muhim masalalarni o'rganishdir. Tadqiqotda o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab mudirlari orasidagi munosabatlarni o'rganish uchun anketalar ishlatiladi. Bu anketalar orqali ta'lim jarayonining mohiyati, o'qitish metodlari, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlar, maktab mudirlari faoliyati va boshqalar kabi ko'plab muhim masalalar o'rganiladi.

TALIS tadqiqoti o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab mudirlari orasidagi munosabatlarni o'rganish uchun tashkil etilgan xalqaro tadqiqotdir. Bu tadqiqotda ta'lim jarayonining mohiyati, o'qitish metodlari, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'rganish, maktab mudirlari faoliyati va boshqalar kabi ko'plab muhim masalalar o'rganiladi 3.

Uning maqsadi — ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma'lumotlar taqdim etishdan iborat. Tadqiqotlar maktab o'qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o'z fikrini bildirish imkonini beradi.

Ilgari TALIS tadqiqotlari har 5 yilda o'tkazilgan bo'lsa, endi 6 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Xalqaro baholash tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish bo'yicha yetakchi davlatlar tajribasini o'rganish, tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, tajribali davlatlar (Finlandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya)ning amaliy tajribasini o'rganishdan iborat.

2013-yilda 34 ta iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan ichidan 4 milliondan ortiq o'qituvchilarni, 6 500 dan ortiq maktablarni, 100 000 nafardan ortiq o'rta maktab o'qituvchilarini va ularning maktab rahbarlari tasodifiy tanlab olindi. 45 dan ortiq mamlakatlar TALIS 2018 tadqiqotida ishtirok etish uchun qo'shildi.

Tadqiqot o'zi kabi qiyinchiliklarga uchrayotgan mamlakatlarga boshqa davlatlar bilan solishtirish va siyosiy yondashuvlar bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradi;

TALIS 2008 tadqiqotida 24 ta mamlakat ishtirok etdi. 2013-yilda bu raqam 34 taga yetdi va 2014-yilda yana 4 ta davlatda tadqiqot o'tkazildi.

2018-yilda 45 dan ortiq iqtisodiy rivojlangan mamlakat ishtirok etdi.

Talis tadqiqotida izlanishlarning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Ma'lumot to'plash va taqqoslash;

O'quv jarayonlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun aniq mezonlarni aniqlash;

- Xalqaro hamkorlikni takomillashtirish;
- Ma'lumotlarni tahlil qilish va aniq ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- Foydasiz va foydalanilmaydigan manbaalarni aniqlash;

- Yo'nalishlar bo'yicha hisobot tayyorlash.

TALIS tadqiqotini olib borish jarayonida quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ta'lim muassasasi rahbarlarini ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirish,

2. Ta'lim siyosatining asosiy aspektlari bo'yicha ta'lim sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

3. Xalqaro kansorsiumlar, o'qituvchilar assotsiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish;

4. Anketa savollariga yozilgan javoblarni tahlil etish, ta'lim sifati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, foydalanilmayotgan resurslarni belgilash, ular yuzasidan taqdimot, ko'rsatma va hisobotlar tayyorlashdan iborat.


TALIS tadqiqotining asosiy vazifalari va afzalliklari

TALISning asosiy vazifalari:



Yo'nalishlar

- ✓ ish sifatini baholash;
- ✓ maktab boshqaruvi,
- ✓ o'qitish metodikasi;
- ✓ o'z ishidan qoniqish darajasi,
- ✓ professional qobiliyatlariga bo'lgan ishonch



TALIS quyidagilarga yordam berishga intiladi...

- O'qitishni kasb sifatida ijtimoiy mavqeyini takomillashtirish;
- Malakali o'qituvchilarni saqlab qolish va o'sishi uchun yo'l ochish;
- O'qitishni kasb sifatida rivojlantirish;

–Kasbiga eng munosib nomzodlarni yollash;

–Amaliyotni davom ettirishda o‘qituvchilarni qo‘llab quvvatlash;

TALIS izlanishlarining maqsadi - o‘quvchilarning turli erishgan natijalarini tahlil qilishdan iborat emas. Balki, aynan shu natijalarga erishishga sabab bo‘ladigan asosiy omillarni aniqlashdan iboratdir.

Izlanishning asosiy qoidalari:

Aynan o‘rta umumta‘lim maktablari faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilganlik;



Har bir mamlakatdan 200ta maktab qatnashadi;



Har bir maktabdan 20ta o‘qituvchi va 1ta ma‘muriyat hodimi so‘rovnomada ishtirok etadi;




O‘qituvchi va ma‘muriyat hodimi uchun turli xildagi so‘rovnoma va vaqt beriladi (45-60 daqiqa)



Ma‘lumot ham qog‘ozda, ham onlayn ravishda yig‘ilishi mumkin



RIVOJLANISHI



2008-yildagi TALIS tadqiqotining birinchi davriyligi o‘rta ta‘limdagi o‘qituvchilarga qaratilgan bo‘lib, u to‘rtta qit‘a bo‘ylab 24 ta mamlakatda o‘tkazilgan. 2013-yildagi TALIS tadqiqotining ikkinchi davriyligi yanada kengroq qamrovga ega bo‘lib, u 34 ta ishtirokchi mamlakat yoki iqtisodiyotni o‘z ichiga oldi. Alohidalik yoki jamoa yetakchiligi, o‘qituvchilarning boshlang‘ich malakasi va o‘quvchilarni baholash amaliyoti bo‘yicha yangi ko‘rsatkichlar kiritildi.

TALIS 2013 tadqiqotida, shuningdek, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, mamlakatlar PISA 2012 tadqiqotida qatnashgan maktablarda TALIS 2013 tadqiqotini o‘tkazish imkoniyatiga ega edilar.

Yevropadagi davlatlar birlashmasi mamlakatlarining yarmidan ko‘pida o‘qituvchilar ta‘limining har bir bosqichida darsdan tashqari ildi jamoaviy bitim va shartnomalar kabi rasmiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlarda o‘qituvchi maktabda bo‘lishi kerak bo‘lgan sinf

va darsdan tashqari soatlarning soni yoki ishning barcha turlarini bajarish uchun umumiy soatlar ko'rsatilgan.

Masalan, Shvetsiyada o'qituvchining bir o'quv yili uchun umumiy ish vaqti jamoa shartnomasida tasdiqlanadi va maktab rahbari bu vaqtni haftaga taqsimlash to'g'risida qaror qabul qiladi, shu jumladan o'qituvchining sinf va darsdan tashqari ishlari uchun sarflagan vaqtlarni ham inobatga oladi.

Italiyada esa o'qituvchi yiliga 80 soatgacha hamkasblari bilan darsdan tashqari ishlarga vaqt ajratishi lozim, shundan 40 soatini pedagogik kengash va ota - onalar bilan uchrashuvlarga, qolgan 40 soatini esa o'quvchilar bilan uchrashuvlarga ajratish kerak bo'ladi.

Finlandiyada o'qituvchilarning ish haftasi davomiyligi eng qisqa vaqtlardan biri – haftasiga 33 soat

Boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari o'qishga har yili OECD o'rtacha ko'rsatkichidan 100 soat kamroq sarflaydi. Boshqa barcha vazifalar uchun (darsdan oldingi va keyingi ishlar, maktabni rivojlantirish, hamkasblar va ota-onalar bilan jamoaviy ishlash) jamoa shartnomasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun haftasiga uch soatlik ish va o'rta maktab o'qituvchilari uchun ikki haftada uch soat belgilangan.

TALIS tadqiqotida kimlar ishtirok etadi?

TALIS tadqiqotida maktablar va maktab o'qituvchilari ishtirok etish uchun tasodifiy tarzda tanlab olinadi. Har bir mamlakatda ishtirokchi sifatida 200 ta maktab va ushbu maktablarning har biridan 20 nafar o'qituvchi har bir ta'lim bosqichlari (boshlang'ich, umumiy

o'rta ta'lim, o'rta ta'lim) bo'yicha tanlab olinadi. Bundan tashqari, har bir tanlab olingan maktab direktori ham maxsus so'rovnomada ishtirok etadi.

Tadqiqotni o'tkazish shakli quyidagicha:

Har bir so'rovnomani to'ldirish uchun taxminan 45-60 daqiqa vaqt sarflanadi. TALIS so'rovnomalari (o'qituvchilar va maktab direktorlari uchun alohida) onlayn yoki qog'oz shaklda to'ldiriladi. Javoblar butunlay maxfiy bo'lib, o'qituvchilar, maktab direktorlari yoki maktablarning ma'lumotlari hech qachon individual tarzda oshkor etilmaydi.

Bundan tashqari, TALIS dasturida tadqiqotchilarga qo'shimcha tahlillarni o'tkazish uchun to'liq hujjatlashtirilgan xalqaro ma'lumotlar bazasi va ikkita tahlil qo'llanmasi bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib beradi.

TALIS - bu o'qituvchilarning qarashlarini o'rganuvchi yagona xalqaro tadqiqotdir.

TALIS tadqiqoti o'qituvchilarning ish faoliyatlaridagi kundalik haqiqatiga e'tibor berganligi sababli, ushbu kasb egalarini TALIS tadqiqotida ishtirok etishga qiziqishlarini orttiradi.

TALIS 2013 tadqiqotining asosiy ma'lumotlaridan biri shundaki, shaxsiy manfaati yuqori bo'lgan o'qituvchilar, ta'lim berishdan ko'proq zavqlanadilar hamda yangilikka moyil bo'ladilar, bundan farqli o'laroq o'ziga ishonchi bo'lmagan o'qituvchilar bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladilar. Har ikki xalqaro ta'lim - o'qituvchilar uyushmalari global federatsiyasi va OECD kasaba uyushmasining maslahat

qo'mitasi TALIS 2013ni qo'llab-quvvatladi. Uning natijalari nafaqat o'qituvchilar va ularning uyushmalari o'rtasida milliy, balki xalqaro miqyosda o'qituvchilik kasbiga bag'ishlangan xalqaro sammitda siyosiy muhokamalarini boyitadi. John Bangs, OECD Kasaba uyushmasining maslahat qo'mitasi ta'lim, o'qitish va bandlik siyosati bo'yicha ishchi guruhi raisi

Kasbiy rivojlanish kurslari ko'proq maktablarda amaldagi jarayonni o'rgatishga qaratilib, biror bir tayanch maktabning bazasida olib borilishi kerak. Bunday kurslar o'qituvchilarni birgalikda faol rivojlanishiga hissa qo'shadi, ularning zarur bilim va ko'nikmalarga ehtiyojlarini qondiradi, shuningdek, ma'lum bir maktabning xususiyatlariga moslashtiradi. Kasbiy rivojlanish bilan shug'ullanish uchun vaqt ajratish zarur. O'qituvchilarning katta qismi, vaqt yetishmasligi ularning to'liq rivojlanishiga imkon bermasligini ta'kidlaydi. Singapur singari dunyodagi eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimlarida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ular faoliyatining ajralmas qismi sifatida e'tibor qaratishadi. O'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal qilish uchun boshqa sohadagi odamlar uchun o'qituvchilik kasbiga kirishning turli xil muqobil yo'llarini topish zarur. Bunda adekvat (adolatli) va sifatli o'qitishni ta'minlash mexanizmlarini yaratish zarur.

TALISga tayyorgarlik ko'rish faqat maktab, o'quvchilar, o'qituvchilar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Milliy markaz yoki Xalq ta'limi vazirligi muammosi emasligi, oliy ta'limda kadrlar tayyorlashga hozirdan e'tibor qaratish zarurligi, ushbu talablarga

mos ravishda ta'lim kontentini, o'quv dasturlari, darslik-qo'llanmalarni takomillashtirish, o'qituvchilarning, birinchi navbatda, malakasini oshirish, ularga fanlar bo'yicha metodik yordam ko'rsatish masalalari muhokama etildi.

TALIS 2024 tadqiqotiga tayyorgarlik

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil topgan kunlardan boshlab, tizimda sifat ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqishga harakat qilinmoqda.

TALIS tadqiqotlarini mamlakatimizda o'tkazish bo'yicha bir necha yillardan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda umumta'lim maktablari milliy reytingini aniqlashda ham mazkur tizimga moslashtirilgan so'rovnomalardan muntazam tarzda foydalanilmoqda. Bu orqali qator yutuq va kamchiliklar mamlakat miqyosida aniqlab kelinmoqda.

Ushbu tadqiqotning xalqaro miqyosda o'tkazilishi esa mamlakatimizdagi ta'lim tizimini obektiv baholab, muammo va kamchiliklarini boshqa mamlakatlar bilan solishtirishiga va kelgusidagi rejalarni yana-da aniqroq belgilab olishga xizmat qiladi. Shuningdek, 2024-yildagi tadqiqotlarda OECD tomonidan faqatgina maktab o'qituvchi va direktorlari emas, balki uning qamrov darajasini maktabgacha va oliy ta'lim tizimiga ham ta'minlash imkoniyatlari yaratilgan. Bundan tashqari, o'qituvchilarning pedagogik salohiyatini ham baholash modullari tanlov asosida kiritilganligi tadqiqotning yangi davriyligidagi o'ziga xosliklarda biridir, lekin bu ishtirokchi davlatlarning tanloviga bog'liq.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarining ushbu nufuzli xalqaro TALIS tadqiqotida ishtirok etish masalasi hukumatning 2018-yildagi qarorida belgilangan bo'lib, ushbu tadqiqotda qatnashish bo'yicha Ta'lim inspeksiyasi va OECD o'rtasida bir necha marta olib borilgan uchrashuvlar natijasida, tadqiqotda qatnashish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgan.

Ma'lumot uchun, Shanxayda TALIS-2013 natijalariga ko'ra o'qituvchilar oylik maoshi 10 foizga oshirilgan. Avstraliyada o'qituvchilarni oliy ta'limdan keyingi tayyorgarligi bo'yicha yangi dasturlar joriy etilgan, professional standartlar yangilangan. Italiyada "Yaxshi maktab" loyihasi doirasida o'qituvchilar malakasini oshirish uchun qo'shimcha mablag' ajratilib, o'qituvchilarga haq to'lash tizimiga o'zgartirish kiritgan bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyat samaradorligiga qaratildi.

Nazorat uchun savollar:

1. TALIS qanday tadqiqoti?
2. TALIS 2024-yilda nechta davlat qatnashishi ko'zda tutilgan?
3. Tadqiqotning o'qituvchilik kasbiga foydali jihatlari nimada?
4. 2008-2013 yillarda o'tkazilgan TALIS tadqiqotida nechta davlatlar ishtirokini kuzatish mumkin?
5. TALIS tadqiqotida kimlar ishtirok etadi va anima uchun?
6. TALIS tadqiqotida O'zbekiston o'qituvchilarining qatnashishidan ko'zlangan maqsad nima?



13-mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahlili

Reja:

1. Ta'lim sifatini oshirish: Xalqaro tajribadan xulosalar
2. Yaponiya ta'lim tizimi
3. Singapur ta'limi

Tayanch tushunchalar: Inklyuziv, asosiy maktab, real maktab, kasbiy akademiya, umumiy maktab

O'zbekiston ta'lim tizimi, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish va o'rganish jarayonini yaxshilashga qaratilgan bir nechta ishlar bilan ta'minlangan. Bu ishlar o'quvchilarning bilim, tajriba, va qobiliyatlarini oshirish, ularning o'zlarini boshqarish va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyidagi ishlar O'zbekistondagi ta'lim sifatini oshirishga yordam berishi mumkin:

1. Individual o'rganish

Individual o'rganish, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini va qiziqishlarini o'rganishga asoslangan ishlar bilan amalga oshiriladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'zlarining o'zini boshqarish, muammolarni yechish va ijtimoiy hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

O'quvchilar o'zlarining o'ziga xos o'rganish yo'nalishlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Misol: O'quvchilar matematika fanida o'zlariga qiziqishlariga asoslangan masalalar yechishni o'rganishadi. Bu, ularning muammolarni o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Hamkorlik va guruh ishi

Hamkorlik va guruh ishi, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan ishlar bilan amalga oshiriladi. Bu ishlar o'quvchilar bir-biriga yordam berish, fikrlarini almashish va jamoatda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. O'quvchilar o'zlarining fikrlarini ifoda qilish va ijtimoiy hamkorlik qilish jarayonida o'rganishadi.

Misol: O'quvchilar ijtimoiy fanlarda guruh ishi bilan ishlashni o'rganishadi. Bu, ularning jamoatda ishlash, fikrlarini almashish va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Amaliyotga asoslangan o'rganish

Amaliyotga asoslangan o'rganish, o'quvchilarning o'zlarini amaliyotda sinash, amaliyot bilan bog'liq muammolarni yechish va o'zlashtirishga asoslangan ishlar bilan amalga oshiriladi. Bu ishlar o'quvchilar teorik bilimlarni amaliyotda qo'llash, o'zlarining o'zlarini sinash va o'rganish jarayonida rivojlantirishadi.

Misol: O'quvchilar texnologiyalar sohasida amaliyotga asoslangan o'rganish orqali yangi innovatsiyalar yaratishni o'rganishadi. Bu, ularning texnologik rivojlanish va innovatsiyalar sohasidagi qobiliyatlarini oshiradi.

4. O'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor

O'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor berish, ularning motivatsiyasini oshirish va o'rganish jarayonini qiziqarliroq qilishga yordam beradi. Bu ishlar o'quvchilar o'zlarining qiziqishlariga asoslangan darsliklar va mashg'ulotlar orqali o'rganishadi.

Misol: O'quvchilar san'at va musiqa sohasida o'zlarining qiziqishlariga asoslangan darsliklar orqali rivojlantirishadi. Bu, ularning san'at va musiqa bilan bog'liq qobiliyatlarini oshiradi.

Ushbu ishlar O'zbekistondagi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish va o'rganish jarayonini yaxshilashda yordam beradi. Bu ishlar o'quvchilarning o'zlarini boshqarish, muammolarni yechish va ijtimoiy hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Maqsad: 2030 yilga kelib barcha qizlar va o'g'il bolalar uchun bepul, adolatli va sifatli, ularni tegishli va samarali ta'lim natijalariga olib keladigan, boshlang'ich va o'rta ta'lim olishlarini ta'minlashdan iborat.

YAPONIYA TA'LIM TIZIMI

Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehgatevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan

xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan.

Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Yaponiyada boshlang'ich ta'lim- "syogakko" haqida batafsil.

Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi.

Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar aprel oyida boshlanadi. O'quv yili 3ta chorak-trimestrga bo'linadi.

1-chorak -6 apreldan 20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentabrdan 2-strimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrden 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi.

Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davometadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar. Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;

-o'quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;

-ona tilidan to'g'ri foydalanish;

-iqtisodiy tarbiya berish;

-barkamol shaxsni tarbiyalash.

Boshlang'ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o'qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Shuningdek "maxsus faoliyat" fani ham o'qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. Kam ta'minlangan oilalarning

bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya (tuhfa) oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

SINGAPURDA TA'LIM TIZIMI

Xorijda tahsil olish istagidagi yoshlarning ko'pi Yevropa davlatlaridan birida o'qishni orzu qiladi. Ammo sifatli ta'lim olish uchun Osiyo mamlakatlarini tanlaydiganlar ham oz emas. Ayniqsa, o'qitish darajasi bo'yicha dunyoda yetakchilar qatorida turadigan Singapurdagi ta'lim muassasalari xorijlik talabalarni hamisha o'ziga chorlab kelgan. Boisi, u nafaqat to'kis, farovon hayot kechirish, balki sifatli va arzon ta'lim olish uchun ham eng qulay mamlakatlardan biri sanaladi.

Singapur ta'limining o'ziga xosliklari bisyor. Ulardan biri — mamlakatda o'qitish jarayoni xitoy tili bilan birga, ingliz tilida olib boriladi. Bir paytlar Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishi oson kechishi uchun kundalik muloqotda ingliz tilidan keng foydalanishni taklif etgan.

Ayni paytda Singapur ta'lim tizimi uch bosqich — maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'limdan iborat.

Singapurda davlat maktablariga katta e'tibor qaratilgani bois ular ta'lim sifati va zamonaviylik borasida xususiy maktablardan sira qolishmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat budjetining 20 foizi ta'limni rivojlantirishga sarflanadi. Shu bois mahalliy aholi xususiy

maktablarga ko'p ham qiziqvermaydi, aksincha, farzandini barcha sharoitlarga ega davlat maktablarida o'qitishni afzal ko'radi. Mamlakatda o'rta ta'lim tizimi maktab, texnikum va kollejlarni o'z ichiga oladi.

2000-yili Singapur parlamenti maktab yoshidagi bolalar uchun majburiy ta'lim haqidagi qonunni qabul qildi. Unga ko'ra mamlakatning barcha fuqarolari uchun **boshlang'ich ta'lim bepul** va majburiy etib belgilandi.

Maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O'rta ta'lim boshlang'ich, o'rta va universitetoldi ta'lim bosqichlariga bo'linadi. Boshlang'ich ta'lim 4 yillik fundamental tayyorlov (1–4-sinflar) hamda 2 yillik ixtisoslashtirilgan tayyorlov (5–6-sinf)ni o'z ichiga oladi. Fundamental tayyorlov bosqichida o'quvchilarga ingliz tili, ona tili (xitoy, malay yoki tamil) va matematika fanlari o'qitiladi. O'g'il-qizlarning tanloviga ko'ra etika, estetika, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiya darslari ham o'tiladi. 3-sinfdan o'quv dasturiga tabiiy-ilmiiy fanlar qo'shiladi. Bolalar 4 yillik ta'limdan so'ng ixtisoslashtirilgan tayyorlov bosqichiga o'tgach, ona tili, ingliz tili va matematikani o'rganish qobiliyatiga ko'ra guruhlariga ajratiladi.

Maktablarda o'quvchilarga shaxsiy imtihon topshirish tizimini ishlab chiqish imkoniyati berilgan. Bu har bir bolaning o'z qobiliyatini yanada yaxshiroq namoyon etishini ta'minlaydi. Imtihonlar yakunida bolalar iqtidoriga ko'ra ingliz va ona tilidan boshlang'ich, standart hamda yuqori daraja, matematika va tabiiy fanlardan dastlabki va standart darajalardan birini oladi. O'qish so'ngida o'quvchilar bitiruv

imtihonini topshiradi va ta'limning keyingi bosqichiga o'tish uchun PSLE (Primary School Leaving Examination) shahodatnomasiga ega bo'ladi.

O'quvchilar imtihon natijalari asosida o'rta maktabning maxsus (4 yil), texnik (4 yil), ekspress (4 yil), akademik (5 yil) yoki integrallashgan (5-6 yil) kurslaridan biriga qabul qilinadi.

Tabiiyki, har bir yo'nalish o'zaro farq qiladi. Maxsus va ekspress yo'nalishlar 4 yillik ta'lim kurslarini o'z ichiga olib, ularda asosan ona tili fani chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. O'quvchi unga qo'shimcha tarzda biror chet (fransuz, nemis yoki yapon) tilini o'rganishi mumkin.

Maxsus va ekspress kurslarni tamomlagan o'quvchilar 2 yillik kollejlarga o'qishga kirishi mumkin. To'rt yillik standart kursini tamomlaganlar bitiruv imtihonidan o'tgach, N-daraja (Normal level) ni oladi. So'ng ixtiyoriy tarzda yana bir yil o'qib, keyingi — O -darajani olish uchun imtihon topshirishi mumkin. Singapur xalq ta'limi vazirligining 2004-yildagi buyrug'iga ko'ra, standart yo'nalish bo'yicha tahsil oladigan o'quvchilar orasidan tanlangan iqtidorli o'g'il-qizlar dastlabki N-darajani olmay turib ham O-daraja uchun imtihon topshirishi mumkin.

Singapur ta'limining yana bir o'ziga xosligi noodatiy baholash tizimidir. Aksariyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi to'qqiz ballik A1 — (eng yuqori), F9— (eng past) baholash mezonlari asosida o'lchanadi. Bunda A1/A2 (a'lo), B3/B4 (yaxshi), C5/C6 (qoniqarli), D7 (fanni o'zlashtirganlik uchun eng kam ball)

hamda E8/F9 (qoniqarsiz) hisoblanadi. Maktablarda yakuniy reyting natijalari to'plangan ballar asosida belgilanadi.

Singapurda eng iqtidorli o'quvchilar integrallashgan ta'lim dasturi (Integrated Programme, IP) ni egallashi mumkin. Bunda mamlakatdagi sara maktablar o'quvchilariga O-daraja sinovlaridan o'tmay turib, 6 yillik o'rta ta'limni tamomlagani zahoti A-darajani olish uchun imtihon topshirish imkoniyati beriladi. Bu o'quvchilarning bo'sh vaqti ko'proq qolishi hamda bu paytda o'zi tanlagan fanlarni chuqurroq o'rganishiga yo'l ochadi. Maktabni tamomlagach, o'quvchilar kollejga kirishi daraja olishi mumkin.

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI

Boshlang'ich ta'lim.

Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi:

Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa. Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus o'qituvchilar tayinlanadi.

Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga, undan yuqori ta'limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. Shu bois ota-onalar o'z farzandlarini xususiy

o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'natadilar. Xususi o'quv muassasalari, ya'ni "xagvonlar" bolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan.

Boshlang'ich maktab koreyschasiga "chxodьm xakkyo" deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi. 1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va "gukmin xakkyo" deb nomladi. Bu atama "fuqarolik maktabi" degan ma'noni anglatadi.

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususi maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususi maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta'lim bosqichida 1 dan boshlanadi. Masalan, boshlang'ich maktab 1 dan 6 gacha, o'rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi:

boshlang'ich maktabning 1-sinfi (2,3,4,5,6-sinfi),

o'rta maktabning 1-sinfi (ya'ni, o'zbek maktablaridagi 7-sinf),

oliy maktabning 2-sinfi (ya'ni o'zbek akademik litsey va kasb-hunar kollejining 2-kurs talabasi) kabi.

Janubiy Koreyada maktab tizimi: o'rta va yuqori maktablar.

Koreys tilida o'rta maktab "chunxakyo" deb nomlanadi va "o'rta maktab" ma'nosini beradi. O'rta maktabda ta'lim majburiy, bepul va 3 yil o'qitiladi. O'rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi.

Boshlang'ich maktabga nisbatan o'rta maktabda o'quvchilarga ancha yuqori talablar qo'yiladi. Sinf rahbarlari-xangyillar o'quvchilar hayotida muhim o'ringa ega, o'quvchilar ularni qattiq xurmat qilishadi.

Koreyalik o'quvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 5-sinfdan boshlab, Xitoy tarixi o'rgatiladi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchi sinfdan-sinfga imtihonsiz o'tadi. Ma'lum fanlar uchun imtihonlarning standart shakllari mavjud, fan o'qituvchilar tavsiya qilingan o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanadilar. O'rta maktabning ko'plab o'quvchilari darsdan keyin qo'shimcha kurslar "xagvonlar"ga boradilar, yoki xususi repetitorlarga qatnaydilar. Alohida e'tibor ingliz tili va matematikaga qaratilgan. Ba'zi xavgonlar bitta fanga asoslanadi, ba'zilar barcha asosiy fanlarni qamrab oladi. Bu o'z navbatida maktab mashg'ulotlarining yanada qiyin bo'lgan ikkinchi qismiga aylanadi. Undan tashqari juda irodali o'quvchilar kurash turlari va musiqa maktablariga qatnashadilar. O'quvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni oliy ta'limni raqobatga tayyorlash, universitet ta'limini rivojlantirishda tadqiqotlar ko'lamini

kengaytirish, bitiruv maktab ta'limi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta'limni rivojlantirish, maktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim uchun o'smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta'lim boshqaruvi va uni moliyalashtirish xalqaro ta'lim almashinuvini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarga katta e'tibor qaratildi.

Koreyada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabning ta'limni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanadi.

Mamlakatda yagona sirtqi oliy o'quv yurti - Seuldagi sirtqi universitet o'ziga hos ahamiyatga ega. "Ochiq universitetlar" ning vazifasi ham shunga o'xshash bo'lib, ularga ishlab chiqarishda ishlayotganlargina kirishi mumkin, ularda kirish imtihonlari yo'q. Janubiy Koreyada kollejlarning asosiy vazifasi malakali ishchilar yoki bo'g'in idora xizmatchilarini tayyorlashdir. Talaba kollejni tugatgach, nazariy jihatdan birdaniga universitetning ikkinchi yoki uchinchi kursiga kirish uchun Singapurda xarakat qilishi mumkin. Shu bilan birga maxsus o'qish imtihonini topshirib, boshqa mutaxassislik bo'yicha ham kirishi mumkin.

Filyandiya maktablari:	O'zbekiston maktablari:
O'quvchilar 7 yoshga to'ladigan yildan qabul qilinadi	O'quvchilar 7 yoshga to'ladigan yildan qabul qilinadi
Boshlang'ich ta'lim 1-6 sinflar, tayanch o'rta ta'lim 7-9 sinflarni o'z ichiga oladi	Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, tayanch o'rta ta'lim 5-9 sinflarni o'z ichiga oladi
O'rta-maxsus ta'lim, umumiy o'rta-maxsus yoki kasb-hunar ta'limi shaklida olinishi mumkin	O'rta-maxsus ta'lim umumiy o'rta-maxsus yoki kasb-hunar ta'limi shaklida olinishi mumkin
Darslar ertalabki 9:00 — 9:45 dan boshlanadi	Darslar asosan ertalabki 8:00 dan boshlanadi
Barcha o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart	Respublika bo'yicha maktablarda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning aksariyati — 89,3 foizi oliy ma'lumotga, 2,6 foizi tugallanmagan oliy ma'lumotga va 8,1 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega. O'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilarning ulushi bo'yicha Qashqadaryo viloyati yetakchi

	hisoblanadi — 18,3 foiz
O'qituvchilar faoliyati baholanmaydi va hech qanday tekshiruvlardan o'tkazilmaydi	O'qituvchilar har besh yilda majburiy (yoki o'z ixtiyoriga ko'ra navbatdan tashqari) attestatsiyadan o'tkaziladi va toifalarga ajratiladi
O'quv dasturlarini ishlab chiqishning nomarkazlashtirilgan tizimi: maktablar ta'lim jarayonida davlat tomonidan majburiy ta'lim uchun tasdiqlangan muayyan fanlarning barchasi, ayrimlari yoki o'z ixtiyoriga ko'ra fundamental ta'limga mos boshqa fanlarni o'qitish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilishlari mumkin	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan tayanch o'quv rejasi va umumiy o'rta ta'lim dasturiga ko'ra amalga oshiriladi. Tayanch o'quv rejasiga ko'ra, o'quv fanlari uchun haftalik dars soatlarining eng kam miqdori 267 soatni tashkil etadi, shundan 262 soat — davlat ixtiyoridagi, 5 soat — maktab ixtiyoridagi soat hisoblanadi
O'quvchilar akademik natijalarini baholash faqatgina 6 va 9-sinfni tamomlayotgan vaqtda amalga oshiriladi	O'quvchilar bilimni baholab borish va ularni sinfdan-sinfga ko'chirish uchun bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy attestatsiyalar o'tkaziladi
Diniy ta'limni o'z ichiga	Diniy ta'limni o'z ichiga

oladi	olmaydi
Standartlashtirilgan testlar va maktablar faoliyati inspeksiyasi tizimi mavjud emas, maktablar reytingi yuritilmaydi	Milliy darajadagi standartlashtirilgan test tizimlari mavjud, maktablar faoliyati tekshiruvdan o'tkaziladi va reytingi yuritiladi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha o'quv materiallari bepul taqdim etiladi	O'quv materiallaridan pullik ijara asosida foydalaniladi. (2023-yil sentabr oyidan ijara kitoblar bepul tarqatiladi)
Bitta sinfda o'quvchilar o'rtacha soni 19–20 nafar	Bitta sinfda 35 nafardan ko'p bo'lmagan o'quvchilar qamrab olinishi mumkin
Muayyan fanlarni chuqurlashtirib o'qitish yoki muayyan fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi, alohida imtiyoz va nufuzga ega bo'lgan maktablar mavjud emas, deyarli barcha maktablar davlat maktablari hisoblanadi	Respublika bo'ylab jami 298 ta nodavlat umumta'lim muassasalari, bundan tashqari, iqtidorli va iste'dodli bolalar uchun Prezident maktablari va ixtisoslashtirgan maktablar faoliyat yuritadi

Nazorat uchun savollar:

1. Xorij tajribasi nima uchun kerak?
2. Koreya va Yaponiya boshlang'ich ta'lim ta'lim afzalliklari.
3. O'zbekiston va Finlandiya ta'limotini taqqoslang.
4. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi xususida fikr bildiring.
5. Finlandiya ta'limi va uning afzalliklari nimadan iborat?

GLOSSARIY

- Adekvat** – adovat
- Almeologik** - yuqori nuqta, yuksalish, yaxshi payt va o'qish
- Analitik** - tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish
- Atributlar** - umumiy xususiyat
- Dotatsiya** – tuhfa
- Diploma programmasy DP** - DP diplom dasturi
- Ekspozitsiya** - ko'rsatish, bayon etish
- Emotsional** - larzaga keltiraman, hayajonlantiraman
- Career-related programmasy (CP)** - 16-19 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur
- Global** - butun yer sharini, butun dunyoni qamrab olgan, universal
- Globalashuv** – insoniyat jamiyatining barcha jabhalarida integrallashuvi va birlashuvining qaytarib bo'lmaydigan jarayoni, global jamiyatga o'tish
- IB (International Baccalaureate)**:- IB (Xalqaro bakalavr): IB dasturi 3- va 4-yildagi o'quvchilarning akademik va tajribaviy rivojlantirishlari, hamda 16-19 yoshdagi o'quvchilarning kundalik faoliyatlarini baholaydi.
- ICILS** - Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini o'rganish
- Innovatsiyalar** – kiritilgan yangilik, ixtiro
- Intellektual** - aqli va analitik fikrlashi yuqori rivojlangan shaxs; aqliy mehnat vakili
- Intensiv** - taranglashgan, kuchaygan
- International Evaluation Methodology** - xalqaro baholash metodologiyasi

Kashfiyot — izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik

Kognitiv - bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq

Kommunikativ - bir kishidan ikkinchisiga axborot uzatish vositasi

Kommunikatsiya - umumlashtiraman, bog'layman

Kompetentsiya - erishyapman, munosibman, loyiqman

Komponent - biror narsaning tarkibiy qismi, elementi

Ko'nikma - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Kotogakko - yuqori maktab

Kreativ – ijodiy

Maximalizm - eng buyuk

Metafora – taqqoslash

Metodologiya - tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot

Middle Years Programmasi (MYP) -11-16 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur

MODERN - eng yangi, zamonaviy

Piktogramma - tasvir, rasm

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot

PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi

Primary School Leaving Examination - boshlang'ich maktabni tugatish imtihoni

Primary Years Programmasi (PYP)- 3-12 yoshlardagi o'quvchilar uchun dastur

Progress in International Reading Literacy Study - xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish bo'yicha taraqqiyot

Refleksiv - o'z harakatlaridan maksimal darajada xabardor bo'lishga intilish, boshqacha aytganda, davom etayotgan voqealar va ular o'rtasidagi munosabatlarning ma'nosini topishga qat'iylik

Renessans - qayta tug'ilish

Resurslar - yordamchi vosita

Respondent - so'rovnoma yoki suhbatda savollarga javob beradigan so'rov yoki tadqiqotda ishtirok etuvchi shaxs.

Shkala – masshtab

Spetsifikatsiya - bu o'ziga xos xususiyatlarning ta'rifi va ro'yxati, biror narsaning aniq tasnifi.

STEAM — tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika

STESTING.UZ – elektron ta'lim platformasi

Strategiya - muayyan maqsadga erishish uchun mo'ljallangan reja

Syugakko - boshlang'ich maktab

Tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni

TALIS - o'qitish va ta'lim olish sharoitlarini o'rganish tadqiqoti

Teylor - vazifani bajarishning eng yaxshi usulini topish

TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring

Trenajyor - o'rgatish, mashq qildirish

Trends in International mathematics and science study - Xalqaro matematika va fanlarni o'rganish tendentsiyalari

Tyugakko - o'rta maktab

Haftiyak - Qur'oni Karimning yettidan biri

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf. Darslik. – Toshkent: Sharq, 2020, 155-b.
2. SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet 10-bet.
3. Abdullayeva B. S, Saidova M. J., Dilova N. G. Matematika o‘qitish metodikasi. Darslik. 2021, — 300 b.
4. Abdullayeva B. S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... — Toshkent: TDPU, 2006. — 263 b.
5. Abduqodirov A. A., Hayitov A. G‘., Shodiyev A. A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. — 76 b.
6. Axborotnoma: (TIMSS) "O‘qituvchi" NMIU Toshkent 2020.
7. Azizxodjaeva N. N. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. –T.: 2007.–14–23 bet.
8. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi uslubiy qo‘llanma.
9. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish sifatini tekshirishga bag‘ishlangan rus tilidagi sayt [Elektron resurs]. -PYL:
10. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil, 198-bet.
11. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. – T.: Sano-standart, 2017 y.
12. Funktsional savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha 2012-2016 yillarga mo‘ljallangan milliy harakat rejasi.


13. Grigoriy Petrov, (2007), Oq zambaklar o'lkasida, Koridor nashriyoti 72, Istanbul (ruschadan Subhane Mirzayeva tarjimasini)
14. G'ulomov A. v.b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012, 8-9 b.
15. <https://www.topuniversities.com/student-info/studying-abroad/what-international-education-why-it-important-you>
16. <http://3.https://www.hurriyet.com.tr/egitim/finlandiya-egitimine-pisa%20onuclariuzerinden-estirel-bir-bakis-2753713>
17. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti-TIMSS&PIRLS International Study Center
18. http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06_pub.htm/.
19. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali
20. <https://fayllar.org/dushman-pirogi-derek-munson-v2.html>
21. <http://www.eduportal.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portal
22. https://uz.wikipedia.org/wiki/AQShda_ta%CA%BClim
23. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: Oqituvchi, Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR
24. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayti
25. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may

26. Instructional principles used to teach critical comprehension skills to a Grade 4 learner <http://dx.doi.org/10.4102/rw.v8i1.149>
27. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G'. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, 2005 .
28. Kholodnaya M. A. Zamonaviy ustuvorliklarimaktabta'limi: ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati aql yoki intellektual rivojlanish va ta'lim? "Material IVButunrossiya Kongressi Rossiyadagi ta'lim psixologlari "Psixologiya va zamonaviy rus ta'limi" (2008 yil 8-12 dekabr, Moskva). -M., 2008 yil.
29. Kovaleva G S., Krasnovskiy E. A., Krasnokutskaya L. P., Krasnyanskaya K. A. Rossiyada RIABA xalqaro qiyosiy o'rganish natijalari // Ta'lim masalalari. -2004. -1-son.
30. Muhammajonov A.7-sinf O'zbekitson tarixi. – Toshkent: Sharq, 2017. 146-b.2015.Incheon, Republic of Korea). – 48 p.3.
31. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /MonografiY.–Toshkent.:Fan, 2004-yil, 360 bet.
32. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commonity and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
33. Mirxalilova N.A. "O'qish savodxonligini oshirishda pirls xalqaro tadqiqotining o'rni" Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 18-noyabr 2022-yil. 175-178-b.

34. "Nine benefits of international education for students" internet sahifasi
35. Narimbetova Z.A. Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni. Xalq ta'limi, 131-134No2, 2021 й
36. Narimbetova Z.A. Математикани ўқитишда илг'ор педагогик технологиялар ва ўқитишнинг замонавий усулларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари. СамДУ Та'лим sifatini oshirish eva zamonaviy interfa'ol metodlardan foydalanishning innovatsion texnologiyalari va uslublari. 3-Q.143-146 Б.
37. Ona tili va adabiyot fanidan bilish darajasini baholashning milliy test sinovi
38. O'QITISH VA TA'LIM Olish SHAROITLARINI O'RGANISH XALQARO TADQIQOTI" Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi
39. Pasi Sahlberg, Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland. y 2013.
40. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov "Umumiy pedagogika" – Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018-yil, 530 bet.
41. Safarov, B.N. (2022). PIRLS-XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI O'RGANISH BO'YICHA TARAQQIYOT. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138.
42. Safarov,B.(2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati: 6-7 yoshli

- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta'lim jurnali,2(2).
43. Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. "Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida didaktik o'yinlar" Jizzax,2007
44. Tayirov M. BOLAJAK OQITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATIGA QOYILGAN TALABLAR //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2021. – №. 3.
45. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma 1-2. ISBN 978-9943-6960-0-6 TOSHKENT — 2020
46. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo'jizasi"-Toshkent: "Global books", 2023.272 bet
47. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi matbuot xizmati. Test topshiriqlari kitobi, DTM 2021.
48. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori
49. 2010 yil 7 dekabrda 2011-2020 yillarda Qozog'iston Respublikasi ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi.
50. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash.(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.

51. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.
52. Xandan Saatcioglu, Dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimi? MANBA: <http://egitimpedia.com/egitim-2/finlandiyanin-pisa-notu-nedendustu>)
53. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" "Sharq" NMAK Toshkent 2019.
54. «Xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 11/03/2022
55. "Xalqaro baholashdasturlari(pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish" Qo'qon universiteti xabarnomasi
56. Юлдашева, III. III. (2018). Almighty power of the word. Молодой ученый,(3), 238-242.
57. What is International Education and Why is It Important For You? By Stephanie L Updated May 14, 2023
58. t.me/milliymarkaz
59. www.marifat.uz
60. www.ziyonet.uz



Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna
BOSHLANG'ICH TA'LIMNING XALQARO DASTURLARI

Oliy o'quv yurtlarining

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	G. Samigova

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Cambria" garniturasida, kegli 16.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,25. Adadi

100 dona. Buyurtma № 2634803

Ilm nurli kitob MCHJda chop etildi.

Tel.raqam: +998 94 673 66 56

+998 97 017 01 01

ISBN 978-9910-9359-5-4



9 789910 935954